

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITYETI**

BOBOXONOV MAVLON RAXMATILLAYEVICH

**HOZIRGI O‘ZBEK ROMANLARI STRUKTURASIDA
PSIXOLOGIZM MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on
Philological Science**

Boboxonov Mavlon Raxmatillayevich

Hozirgi o'zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi..... 3

Бобохонов Мавлон Рахматиллаевич

Проблема психологизма в структуре современных узбекских романов..... 35

Bobokhonov Mavlon Rakhmatillaevich

The Problem of Psychologism in the Structure of Modern Uzbek Novels..... 67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 71

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITYETI**

BOBOXONOV MAVLON RAXMATILLAYEVICH

**HOZIRGI O‘ZBEK ROMANLARI STRUKTURASIDA
PSIXOLOGIZM MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Doktorlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.1.DSc/Fil13 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Umurov Hotam Ikromovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	To'rayev Damir To'rayevich filologiya fanlari doktori, professor Karimov Bahodir Nurmetovich filologiya fanlari doktori, professor Islamov Ramil Fanaviyevich filologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «16» iyun soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92; faks: +99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Q.Muhiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida nazariy poetikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadigan inson ruhiyati talqiniga, badiiy psixologizmning asar tarkibidagi o'rnini belgilashga, inson ichki olami tasvirida yozuvchilar qo'llayotgan usullarni aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasida psixologizmning badiiy ijod bilan bog'liq adabiy-estetik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, yozuvchilarning psixologik jarayonlarni tasvirlash mahorati borasidagi tasavvurlar kengaymoqda, mazkur uslubiy fenomenning ichki tuzilishini, vosita va usullarini aniqlashtirish hamda badiiy xarakterlar yaratishdagi ahamiyatini hozirgi adabiy tafakkur nuqtai nazaridan asoslash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida epik turning barcha janrlarida ruhiy tahlil, ong oqimi, g'ayrushuuriylik nazariyalarining mohiyatini anglash, ruhiyat tasviri orqali adabiy qahramonlar tiynatini ochish, psixologik obrazlarni ishonarli yaratishda ijodkor individual uslubining namoyon bo'lishi, ruhiy tahlil usulining ustuvor jihatlari yuzasidan antropetsentrik yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy psixologizm muammosi psixologik metod, janr, mahorat masalalari bilan chambarchas aloqadorlikda tekshirilib, nasriy va nazmiy asarlarning takomillashuv jarayonini chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati boshqa jabhalar qatori zamonaviy o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini teranroq tadqiq qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"¹. Shu bois, yozuvchilarimiz individualligini, obrazlar ta'sirchanligini ta'minlovchi kategoriya sifatida badiiy psixologizmni tadqiq etish ushbu muammoni zamonaviy o'zbek romanlari asosida o'rganish dolzarb ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. Elektron resurs: <https://prezident.uz/uz/lists/view/1926>.

kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi ². Psixologizm, psixoanaliz va badiiy adabiyot munosabatiga doir ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Pennsylvania State University, Berkeley University of California (AQSH), The Hebrew University of Jerusalem (Isroil), Hasanuddin university, Universitas Muhammadiyah Surabaya (Indoneziya), Moskva davlat universiteti, Perm davlat universiteti, Chelyabinsk davlat universiteti (Rossiya), Grodno davlat universiteti (Belarus), Boku davlat universiteti (Ozarbayjon), Vilnyus davlat universiteti (Litva), Samarqand davlat universiteti (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Epik asarlardagi psixologizmga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: psixoanaliz badiiy asarlardagi yashirin ma'no-mazmunni aniqlash va o'rganishda qo'l kelishi isbotlangan (Pennsylvania State University, Berkeley University of California, USA); asar tahlilida psixoanaliz nazariyasini qo'llash natijasida badiiy matn kitobxonni muallifning tiyilgan istaklari, vahimali o'ylari va mayllari bilan tanishtirish imkonini berishi aniqlangan (The Hebrew University of Jerusalem, Israel); ruhiyat tasviri kitobxonga ma'naviy ozuqa berishi va ijod psixologiyasi jarayonlari izchillikda talqin qilingan (Hasanuddin university, Universitas Muhammadiyah Surabaya, Indonesia); psixologizm genezisi o'rganilgan, uning asosiy tamoyil va shakllari aniqlangan, psixologik detallashtirish, portretlashtirish usullari ishlab chiqilgan (Moskovskiy gosudarstvenniy universitet, Permskiy gosudarstvenniy universitet, Chelyabinskiy gosudarstvenniy universitet, Rossiya); psixologik tasvir usullari tasniflangan (Vilniaus universitetas, Lithuania); psixologizm poetikasi tadqiq etilgan (Grodnenskiy gosudarstvenniy universitet, Belarus) o'zbek romanlaridagi psixologizmning taraqqiyotiga xos jihatlar ilmiy asoslanib, ruhiy tahlil vositalari aniqlangan (Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston).

Jahon adabiyotshunosligida epik asar strukturasi psixologizm taraqqiyoti bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: adabiyotning semiotik, germeneytik, narratologik tabiatini asoslash, badiiy asarni muallifning voqelikka o'zgacha nigohi natijasi sifatida talqin qilish, psixologizm va uslub, janr, metod, shaxs konsepsiyasi munosabatini aniqlashtirish; nasriy asarda

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar jahonning quyidagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan: <https://www.psu.edu/>, <https://www.berkeley.edu/>, <http://new.huji.ac.il/en>, <https://www.unhas.ac.id/en>, <https://um-surabaya.ac.id/ums/>, <http://www.zhsust.edu.bd/>, www.msu.ru, <http://www.psu.ru/>, www.csu.ru, www.gsu.bl, www.vu.lt, www.samdu.uz.

muallif, hikoyachi va personaj nutqini ajratish orqali hikoya qilish turlarini tasniflash, “muallif – matn – kitobxon” tizimida tasvir, ifoda va retsipyentga emotsional ta’sir etish planlarining funksional ahamiyatini baholash; turli nuqtai nazarlar orqali hikoya qilishning ruhiy tahlilni ta’minlashdagi o’rnini belgilash.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Badiiy psixologizm anchadan buyon adabiyotshunoslar e’tiboridagi murakkab masalalardan biri hisoblanadi. U haqda ilk kuzatishlar olib borgan N. G. Chernishevskiy L. N. Tolstoy ijodida psixologizmning rang-barang shakllari mavjudligini ta’kidlab o’tgan edi³. Uning psixologik tahlilga nisbatan “ijodiy talantga kuch bag’ishlaydigan sifatlar ichida eng muhimi” degan bahosi hali ham dolzarbligini yo’qotmagan. Keyinchalik bu tushuncha adabiyotshunoslik madaniy-tarixiy maktabining psixologik yo’nalishi vakillari, jumladan, A. Potebnya tomonidan ilmiy sohaga olib kirildi.

Badiiy asarlardagi “estetik reaksiya”, katarsis, emotsional-obrazli mazmun masalalarini ishlab chiqishda yangi sahifa ochgan L. S. Vigotskiy til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok psixologiyasining o’zaro munosabati bo’yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. His-tuyg’ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning “har qaysi davr san’at tomonidan saralab olinadigan o’z psixologik gammasiga ega”ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan⁴.

Psixologizm muammosini tushunib yetishning samarali mahsulini, avvalambor, D. S. Lixachyov⁵, L.Ya.Ginzburg⁶, A.V.Karelskiy⁷, N.V.Zababurova⁸ singari rus adabiyotshunoslarining tarixiy-qiyosiy xarakterdagi ishlarida ko’ramiz. Qayd etish kerak, g’arb adabiyotini o’rgangan tadqiqotchilar (A. V. Karelskiy, N. V. Zababurova, N. S. Leytes) so’z san’atidagi psixologizm tushunchasining ko’p qirraliligi va uni o’rganishda asarni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etuvchi sinxron hamda diaxron yondashuvlar birikuvidan foydalanish zarurligi haqida fikr yuritadilar.

Badiiy psixologizmni o’rganar ekanmiz, g’arb va sobiq sho’rolar adabiyotshunosligida adabiyotga nisbatan yondashuvlar turlicha bo’lganligini ko’ramiz⁹. Aytish joiz, psixologizm konsepsiyasini qurishda sho’ro adabiyotshunoslari yangi psixologik kashfiyotlarni hisobga olmadilar, ular faqat shaxsning realistik konsepsiyasiga, adabiy qahramon ichki hayoti va fe’l-atvorini tasvirlashning an’anaviy usullariga tayandilar. O’z navbatida, xorijiy adabiyotshunoslikning ustivor jihatlarini “yashirin”, “ichki” insonga sinchkovlik bilan

³ Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М.: 1949. – С. 505.

⁴ Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 93.

⁵ Лихачёв Д.С. Человек в литературе Древней Руси. – М.: Наука, 1970. – С. 178.

⁶ Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – М.: INTRADA, 1999. – С. 415.

⁷ Карельский А.В. От героя к человеку (Развитие реалистического психологизма в европейском романе 30-60-х годов XIX в.). – Вопросы лит. – 1983. - №9. – С. 81-122.

⁸ Забабурова Н.В. Французский психологический роман (эпоха Просвещения и романтизм). – Ростов-на-Дону.: Изд. Ростовск. Ун-та, 1992. – С. 223.

⁹ Tadqiqotlarning aksariyatida sho’ro adabiyotshunosligi ijtimoiy-madaniy muhitga («ijtimoiy psixologizm», ichki olam jamiyatdagi ijtimoiy muhit, zamon bilan o’zaro nisbatda ko’riladi), g’arb adabiyotshunosligi esa g’ayrushuuriylikka, ichkining teranligiga (psixoanaliz, ong osti psixologiyasi) moslashganligi muhim sanaladi.

qarash, Z. Freyd, K. Yunglarning psixoanaliz sohasidagi izlanishlariga kuchli qiziqish bilan shartlangan edi. Binobarin, psixoanalizni badiiy-estetik fenomenlarga nisbatan qo'llash metodlarining poydevori ular tomonidan qo'yildi¹⁰. Psixologik-struktural estetika g'oyalari fransuz faylasufi J. Lakan tomonidan ham ishlab chiqildi¹¹. Istilohning o'zidan foydalanish va badiiy psixologizmni tadqiq qilishga moyillik sho'ro fani ishlanmalariga moslashgan nemis, polyak adabiyotshunosligida ham kuzatiladi¹². Mazkur badiiy tushuncha olimlar tomonidan "ichki hayotga alohida qiziqish", o'z ruhiy holati haqida o'ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillik jarayonlariga nazar tashlash sifatida talqin qilinadi¹³.

O'zbek olimlaridan A. Rasulov, B. Nazarov, U. Normatov, H. Umurov, H. Boltaboyev, B. Yo'ldoshev, Q. Yo'ldoshev, D. Quronov, I. Yoqubov, A. Erkinov, B. Karimov, U. Jo'raqulov, Q. Qahramonovlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalarida yozuvchilarning ijod laboratoriyasi, ijodkor badiiy olami kabi masalalarda ko'lamdor fikr-mulohazalar bildirilgan¹⁴. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm muammosi, uning tamoyil va shakllari, ruhiy tahlil va ong oqimi, ayniqsa, ijod psixologiyasi va yozuvchilarning inson ruhiyatini tasvirlash bobidagi mahorati H. Umurov, D. Quronov, A. Xolmurodov, U. Jo'raqulov, T. Jo'rayev, kabi olimlarning tadqiqotlarida, P. Kenjayeva, M. Boboxonov, kabi tadqiqotchilarning ishlarida maxsus o'rganilgan¹⁵.

Mazkur muammo yuzasidan nuqtai nazarlarning ko'pligiga qaramasdan, hozirgacha badiiy psixologizmning aniq tavsifi, tushuncha sarhadlari hamda yaxlit

¹⁰ Каранг: Зелинский С.А. Творчество и психоанализ. Elektron manbaning internetdagi manzili: http://zhurnal/lib/ru/z/zeliniskij_sergej_alekseewich/tytyt.shtml.

¹¹ Дьяков А. В. Жак Лакан. Фигура философа. М.: Издательский дом «Территория будущего», 2010. – 560 с. Электрон ресурс: <http://www.jkhora.narod.ru/diakoff-lacan.pdf>

¹² Marten S. K. Deutsche Literatur unserer Zeit. – Berlin, Leipzig, 1928; Grenzmann B. Deutsche Dichtung der Gegenwart. – Frankfurt a. M., 1955; Welzig W. Die deutsche Roman in 20. Jahrhundert. – Stuttgart, 1967.

¹³ Nemis, polyak adabiyotshunoslik lug'atlarida bu termin deyarli uchramaydi, ba'zan badiiy adabiyotning inson ruhiy, ichki hayotini tasvirovchi umumiy xususiyati sifatida tushuntiriladi. Masalan: «Psychologizm – nurt w prozie narracyjnej I dramaturgii XX w., charakteryzujacy sie wsmozonym zainteresowaniem dla procesow zycia wewnietrznego, tendencja do ujmowania postaci literackiej wytlacznie w kategoriach psychologicznych» // Sownik terminow literackich / Pod red. J. Slawinskiego. – Wroclaw, Warszawa, Krakow, Gdansk: Zaklad Narodowy im. Ossolinskich, 1976. – L. 357.

¹⁴ Умуров Х. Тахлил санъати. –Т.: Ф.Гулом нашриёти, 1978.; Куронов Д. Чўлпон ва Фрейд // Ўзбек тили ва адабиёти.- 1991.- №6.- Б.50-51; Болтабоев Х. Фитратнинг илмий мероси.–Т.: Фан, 1996.; Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. –Т.: ЎзМУ, 2003.; Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари. Фил.ф.доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: А.Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2003; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан, 2006; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Т.: Шарқ, 2007; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. –Т.: Фан, 2006; Норматов У. Ижод сеҳри. –Т.: Шарқ, 2007; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2007; Қахрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. –Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.

¹⁵ Умуров Х.И. Проблема психологизма и узбекский роман: Дисс. на соиск. учен. степ. д-ра филол. наук. – Ташкент, 1983. – 363с.; Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 148 б.; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: «Шарқ», 2004. –288 б; Холмуродов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1991. – 53 б.; Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. – 203 б.; Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. "Фарғона" нашриёти, 2009; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қахрамон рухиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б.; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.

kotsepsiyasi ishlab chiqilgani yo‘q. Muammoning xususiy jihatlarini ishlab chiqish (psixologizm va uslub, janr, metod, shaxs konsepsiyasi) adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Modomiki, psixologizmning adabiyotdagi nazariy va amaliy masalalarini o‘rganishda uzoq vaqt mobaynida faqat realist yozuvchilar merosi asosiy material bo‘lib xizmat qildi, keyingi yillardagi qator tadqiqotlarda psixologizmning o‘zini XIX asr realizmining kashfiyoti sifatida ko‘rish va tadrijiy takomilining keyingi bosqichlarini e‘tiborga olmaslik mayli sezilib turadi. Avvallari fanda psixologizm haqida badiiy metod, an‘ana va novatorlik rakurslaridan turib bahs yuritilgan bo‘lsa, o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab muammoni nazariy va tarixiy jihatdan anglash yo‘liga o‘tildi. 90-yillardan e‘tiboran psixologizmga nisbatan adabiy-tarixiy jarayon harakatining badiiy o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan ichki (immanent) hodisa sifatida qarala boshlandi. Zikr qilingan muammoga qiziqish hozirgacha pasaygani yo‘q, tadqiqotlarning yangi ufqlari ochilmoqda¹⁶. Yangi talqinda zamonaviy adabiyotdagi psixologizm epistemologik-falsafiy, aksiologik genezis bilan, o‘zini o‘zi anglash va mistitsizm (I. Novikov) bilan emas, balki ularning “badiiy asar strukturasidagi tutash, o‘zaro shartlangan psixikasini” (I. Lapin) payqab turgan “hamijodkor” – kitobxon pozitsiyasi bilan aloqadorlikda tushuntiriladi¹⁷. Muammoga bunday yondashish juda qiyin, biroq ancha samarali. Demak, ko‘p asrlik adabiy merosni o‘zlashtirishdek murakkab va chigal jarayonda psixologizm nazariy va tarixiy-konkret muammo sifatida olimlar tomonidan qayta tushunib yetilmoqda. Markazida bor-bo‘yicha inson turgan, ko‘p qirrali, intellektual va badiiy murakkablashgan asarlar haqli ravishda psixologizm o‘zanida ko‘zdan kechirilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Adabiy tur va janrlar poetikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o‘zbek romanlari strukturasidagi psixologizm genezisini, asar kompozitsiyasidagi o‘rni va ahamiyatini, vosita va usullarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

psixologizmning ichki tuzilishini, vosita va usullarini aniqlashtirish hamda badiiy xarakterlar yaratishdagi ahamiyatini hozirgi adabiy tafakkur nuqtai nazaridan asoslash;

badiiy psixologizmning aniq tavsifi va yaxlit kotsepsiyasini ishlab chiqish orqali tarixiy va nazariy poetikaning konkret muammosi ekanligini isbotlash;

tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq masalalarni jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy adabiyotlar orqali tizimlashtirib, tanqidiy ochib berish;

¹⁶Psixologizm muammosi yuzasidan amalga oshirilgan salmoqli tadqiqotlar sirasiga rus adabiyotshunoslaridan I. V. Nikolayeva, I. I. Burova, T. P. Usachyova, V. Gudonene, Ye. Yu. Xong, o‘zbek adabiyotshunoslaridan H. Umurovning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

¹⁷ Problemy psychologizmy w literaturach wschodnioslowanskich. Pod red. W.Wilczynskiego. – Zielona Gora: Wyzcza szkola pedagogiczna im. T.Kotarbinskiego, 1991. – L. 260.

psixologizmning roman tarkibidagi o‘ziga xos xususiyatlarini va personaj xarakterini ochishdagi ahamiyatini aniqlash;

roman strukturasi nutqning subyektiv tashkillanishiga xos murakkab tuzilma ekanligini asoslash;

psixologizmning roman syujeti va kompozitsiyasi bilan o‘zaro aloqadorligini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, M. M. Do‘stning “Lolazor”, E. A‘zamning “Shovqin”, U. Hamdamning “Isyon va itoat” va J. Jovliyevning “Qo‘rqma” romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy o‘zbek romanlari strukturasiidagi yetakchi tarkibiy jihat – psixologizmning o‘ziga xos xususiyatlari, ruhiy tahlilning vosita va usullari, ruhiy tasvirga nisbat beradigan unsurlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik, struktural-analiz tadqiq usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatini tasvirlash usullari tekshiruv obektiga kiritilganidan so‘ng, badiiy psixologizmning romanlar tabiatidagi o‘rnini belgilashda bugungi adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy qarashlarni psixoanaliz va kollektiv g‘ayrushuuriylik nazariyalari asosidagi yondashuvlar bilan boyitish zarurligi asoslangan;

badiiy psixologizm tamoyillari asosida milliy nasrimizda shakllangan psixologik xarakterlar yaratish usullarining jahon adabiyotida erishilgan yutuqlar bilan munosabatga kirishish jarayonidagi reminssensiya, adabiy ta’sir va tipologiya singari komparativistikaga doir belgilari ochib berilgan;

“Shovqin”, “Lolazor”, “Qo‘rqma” romanlaridagi psixologizm voqelangan obrazlar tizimida xarakterlar ruhiy individualligini ta’minlovchi portret, peyzaj, narsa-buyum, tush, ichki monolog, ong oqimi kabi ruhiy tahlil vositalarining adabiy qahramonlarning dinamik, turg‘un holatlari va ishonarliligini ta’minlashdagi o‘zaro aloqasi dalillangan;

“Otamdan qolgan dalalar” hamda “Isyon va itoat” romanlarida qo‘llanilgan tasviriy, oydinlashtiruvchi, xarakterlovchi, tagma’noli badiiy detallar hamda adabiy qahramonlarning o‘zini o‘zi xarakterlovchi ichki monologlari xarakterlar o‘zini tutishini psixologik jihatdan dalillashning muhim tamoyili ekanligi isbotlangan;

ruhiy tahlilning adabiyotshunoslik tushuncha va kategoriyalari tizimidagi o‘rnini aniqlash asosida psixologizmning personajlar ichki olamini tasvirlash ekanligi, inson obrazi adabiyotshunoslikda badiiy shaklning predmetli tasviriylik jihatiga tegishliligi asoslangan;

psixologik romanlar badiiyatini ta’minlovchi g‘ayrushuuriylik tamoyili adabiy qahramonlar ruhiyatini ochishga xizmat qilganligi tufayli “Qo‘rqma” romanidagi “Ko‘lanka” obrazi bosh qahramon ong ostidagi g‘ayrushuuriylik hosilasi sifatida gavdalanganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy o'zbek romanlarida inson ichki olami, shuningdek, adolat, ezgulik, haqiqat singari umuminsoniy qadriyatlarning yoritilishi kitobxonlar tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-estetik va ma'naviy-ma'rifiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

psixologizmni tadqiq etish yo'lidagi xilma-xil urinishlar, turlicha zamonaviy yondashuvlarning natijalari umumlashtirilgan, u bilan bog'liq tushunchalarga istilohiy aniqlik kiritilgan;

asar olami tushunchasi muomalaga kiritilib, uning tasnifi bilan bog'liq qarashlar ochib berilgan;

zamonaviy o'zbek romanlaridagi psixologizmning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, psixoanaliz va g'ayrushuuriylik nazariyalarining roman tahlilidagi ustuvorligi matn tahlili orqali ochilgan;

ishlab chiqilgan metodologiya va tahlil usullari nasriy asarlar tahlilida qo'llangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik, struktural-analiz tadqiq usullari vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning ilmiy xulosalaridan zamonaviy o'zbek romanlarining tarkibi va tabiati, obrazlar tizimi haqidagi ilmiy tasavvurlarni chuqurlashtirish va yaxlit tizimga solish, badiiy ijodda psixonaliz va g'ayrushuuriylik hodisalarining poetik qirralarini jahon adabiyotshunosligidagi falsafiy-estetik qarashlar asosida tasniflashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma'lumotlar berishda, o'zbek romanlarini qiyosiy o'rgatishda, shunga aloqador darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslikka oid izohli lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek romanlari strukturasidagi psixologizmni adabiyotshunoslikdagi konseptual qarashlar asosida tadqiq etish, ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilash asosida:

ruhiy tahlilning adabiyotshunoslik tushuncha va kategoriyalari tizimidagi o'rnini aniqlash asosida psixologizmning personajlar ichki olamini tasvirlash ekanligi, inson obrazi adabiyotshunoslikda badiiy shaklning predmetli tasviriylik jihatiga tegishliligi asoslangan xulosalardan FA-F1-G040 raqamli "O'zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: tipologiya va adabiy ta'sir" (2012-2016) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligining 2017 yil 18 oktyabrdagi FTA-02-11/907-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi

personaj obrazi badiiy shaklning predmetli tasviriylk (tasvirlangan olam) jihatiga tegishli ekanligiga doir nazariyani ishlab chiqish imkonini bergan;

o'zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyatini tasvirlash usullari tekshiruv obektiga kiritilganidan so'ng, badiiy psixologizmning romanlar tabiatidagi o'rnini belgilashda bugungi adabiyotshunoslikdagi ilmiy-nazariy qarashlarni psixoanaliz va kollektiv g'ayrushuuriylik nazariyalari asosidagi yondashuvlar bilan boyitish zarurligi asoslangan xulosalardan FA-F1-G002 raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" (2012-2016) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022 yil 24 oktyabrdagi 17.01/190-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan adabiy qahramonlar ruhiyatiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar hamda roman janri xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

badiiy psixologizm tamoyillari asosida milliy nasrimizda shakllangan psixologik jihatdan ziddiyatli xarakterlar yaratish usullarining jahon adabiyotida erishilgan yutuqlar bilan munosabatlarga kirishish jarayonidagi reminssensiya, adabiy ta'sir va tipologiya singari komparativistikaga doir belgilari ochib berilgan ilmiy natijalaridan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" (2017-2020) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022 yil 25 oktyabrdagi 17.01/191-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya natijalarini amaliy qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning, roman janri haqida olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

"Shovqin", "Lolazor", "Qo'rqma" romanlaridagi psixologizm voqelangan obrazlar tizimida xarakterlar ruhiy individualligini ta'minlovchi portret, peyzaj, narsa-buyum, tush, ichki monolog, ong oqimi kabi ruhiy tahlil vositalarining adabiy qahramonlarning dinamik, turg'un holatlari va ishonarliligini ta'minlashdagi o'zaro aloqasi dalillanganligi yuzasidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi "Umid", "Onajonim she'riyat" to'garaklari faoliyatida adabiy suhbatlar o'tkazilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2019 yil 02 avgustdagi 01-03-13/835-son ma'lumotnomasi). Natijada, ruhiyat tasvirining kitobxonga estetik ta'sirini to'g'ri angelaydigan, jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlarga ongli munosabat bildiradigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

psixologik romanlar badiiyatini ta'minlovchi g'ayrushuuriylik tamoyili adabiy qahramonlar ruhiyatini ochishga xizmat qilganligi tufayli "Qo'rqma" romanidagi "Ko'lanka" obrazi bosh qahramon ong ostidagi g'ayrushuuriylik hosilasi sifatida gavdalanganligiga oid xulosalaridan "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining "Birgalikda o'qiymiz", "Qaqnus", "Dunyo adabiyoti" ko'rsatuvlarni tayyorlash jarayonida foydalanilgan (O'zMTK "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining 2022 yil 21 noyabrdagi 01-02/211-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash nomlari sanalgan ko'rsatuvlar saviyasini oshirishga, xalqimizning boy

ma'naviy-ruhiy dunyosi, badiiy-estetik tafakkur tarzini teran idrok etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 3 ta xalqaro konferensiya va 5 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ma'ruza va tezislar ko'rinishida ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 224 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhlangan, ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy psixologizm genezisi”** tadqiqiga qaratilgan birinchi bobi uch fasldan tashkil topgan. *“Psixologizmning tarixiy ildizlari”* deb nomlangan birinchi faslda ushbu estetik kategoriyaning adabiyotga kirib kelishi va rivoji tadqiq etiladi.

Adabiyot rivojining antik davrdan bugungacha bo'lgan dinamikasi psixologizm ko'rinishlarining o'sish-o'zgarish jarayonlarini: ichki hayot qonuniyatlarini tushunishning teranlashayotganligini, ruhiyatni tasvirlashning badiiy vositalari ko'payib borayotganligini, madaniy jabhada psixologizmning estetik ahamiyati ortayotganligini o'zida aks ettiradi. Psixologizmning kelib chiqishi borasida tadqiqotchilarning fikrlari, birinchi navbatda, “psixologizm” terminining o'zini talqin qilishdagi tafovutlar tufayli, turli-tuman. Agar uni keng ma'noda tushunishga ergashadigan bo'lsak, psixologizm adabiyotga immanent (biror hodisaning ichki xususiyatiga xos bo'lgan, uning tabiatidan kelib chiqadigan) va uning poydevori so'z san'ati rivojining ilk bosqichlaridanoq qo'yilganligiga qo'shilishimiz kerak.

Psixologizm anglangan estetik tamoyil sifatida tushuniladigan mulohazalarga ko'ra, uning yuzaga kelishini adabiy jarayonning eng qadimgi davrlariga taqash mumkin. Psixologizm yuzaga kelishi uchun jamiyat hayotida madaniy rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi talab etiladi, biroq, eng asosiysi, mazkur taraqqiyot mobaynida insonning betakror shaxsi qadriyat sifatida tan olinishi zarur.

Psixologizmning ilk paydo bo'lishini ayrim olimlar qadimgi antik davr bilan bog'liq holda tushunishsa (II-IV asrlar; A. B. Yesin, V. P. Ragoysha), ba'zilar buni Uyg'onish davriga (B. T. Udodov) yo'yishadi. Biroq uning paydo bo'lishini XVII – XVIII asrlarga nisbat berish ko'proq ommalashgan (L. Ya. Ginzburg). Ayni paytda, XIX asr badiiy psixologizm tadrijiy taraqqiyotining cho'qqisi sifatida tadqiqotchilar tomonidan yakdillik bilan tan olinadi. Boshqa tomondan, bu gipotezalar psixologizmga genetik jihatdan qaralganda ko'zga chalinadigan janr-tur jihatlariga asoslangan yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq.

L. Ginzburg "psixologizm" terminini faqati XIX asr nasriga, realistik personaj-xarakterga nisbatan qo'llash mumkin deb hisoblaydi: "Badiiy psixologizm qahramonning o'zini tutishidagi xayolga ham kelmagan, nogahoniy, tasodifiy qarama-qarshiliklardan boshlanadi"¹⁸. Zotan, XX asr psixologiyasi va falsafasi inson fenomenini yangicha izohlay boshladi, dinamik jihatdan o'zgaruvchan borliqning o'zi adabiyotning ruhiy-ma'naviy hayotni tadqiq etish maylini kuchaytirdi. Inson ruhiyati realizm an'alarini davom ettirayotgan yozuvchilar uchun ham, modernistik ijodkorlar uchun ham mushohada predmeti bo'lib kelmoqda. XX asr adabiyotida analitik yo'sindan sintetik prinsip foydasiga siljish, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tasvir usullaridan bilvosita foydasiga yuz burish, ong osti sohasiga yanada sinchkovlik bilan nazar tashlash holatlari psixologizm evolyutsiyasining bosh va umumiy tendensiyasiga aylandi.

Psixologizm bevosita – muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita – qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi. Badiiy psixologizm – inson ichki hayotining muallif tayanadigan tushunchalar, uning shaxs haqidagi tasavvurlari va kommunikativ strategiyasi bilan shartlangan badiiy-obrazli, tasviriy-ifodaviy tiklanishi va tavsiflanishidir. Ruhiy tasvir deganda esa, personaj jismoniy jihatlari (his-tuyg'ulari, kechinmalari, holatlari) va uning ma'naviy-ruhiy olamidan chiqib keladigan shaxsiy tajribasining badiiy tadqiqini tushuniladi. Psixologizm uch asosiy ko'rinishda: adabiyotning tug'ma belgisi, muallif psixikasining muayyan ifodasi, muallif tomonidan ongli tanlangan, asar yaxlitligini belgilaydigan estetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. "Psixologizm da klassik adabiyotning uzoq yillik tarixiy hayotining sirlaridan biri yashirin: inson qalbi haqida gapirar ekan, u har bir kitobxon bilan uning aynan o'zi haqida gaplashadi"¹⁹. Bunda xarakter va sharoitning o'zaro doimiy dinamik aloqasi muhim rol o'ynaydi. H. Umurov ta'biri bilan aytganda, "tashqi muhit xarakter ichki dunyosida qo'zg'alishlar, zilzilalar, kechinmalar uyg'otgani kabi, bu ichki dunyoning murakkab "sirlari" xarakter xatti-harakatlarini asoslashga, boshqarishga, tashqi muhit rivojiga turtki beradi"²⁰.

N. S. Leytesning haqli mulohazasiga ko'ra, "psixologizm bugun o'zining nafaqat shaxs ichki dunyosini yoki uning ma'naviy jarayonlarini ochadigan, balki syujetni belgilaydigan va struktura tashkil etadigan ta'sirchan omil ekanligini

¹⁸ Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – М.: INTRADA, 1999. – 300 с.

¹⁹ Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: 1988.

²⁰ Умurov X. И. Сайланма. Биринчи жилд. Рисолалар. – Т.: Фан, 2007. – Б. 42.

ma'lum qilmoqda"²¹. Ya'ni, "dunyo suratini ruhiylashtirishdan" butun romaniy makonni ruhiylashtirishga o'tilmoqda.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "*Adabiyotshunoslik tushunchalari tizimida psixologizm*" deb nomlangan bo'lib, unda ushbu estetik kategoriyaning adabiyotshunoslik atamalari sistemasidagi o'rni haqida so'z boradi.

Psixologizmning ilk aniq ta'riflari XX asrning 40-yillaridan boshlab izohli lug'atlarda paydo bo'ldi. Jumladan, psixologizm D. N. Ushakov tahriri ostidagi "Rus tilining izohli lug'ati"da san'atda "ruhiy kechinmalarni aks ettirishga, chuqur tasvirlashga, murakkab va o'tkir psixologik tahlilga moyillik"²², S. I. Ojegovning "Rus tili lug'ati"da – adabiyotda "psixik, ruhiy holatlarni teran tasvirlash"²³, V. I. Chernishev tahriri ostidagi "Zamonaviy rus adabiy tili lug'ati"da – "ruhiy hodisalarning teran tasviri, chuqur psixologik tahlil"²⁴ sifatida ta'riflanadi. Keltirilgan ta'riflardan oxirgisining ko'lamdorligini tan olish lozim, chunki u psixologizm sohasiga nafaqat ruhiy kechinmalarni, balki ruhiyat bilan bog'liq boshqa hodisalarni ham kiritadi. Keyingi yillarda nashrdan chiqqan izohli lug'atlarda psixologizmga berilgan ta'riflarda ham aynan shu uchinchi ta'rif hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunonchi, xuddi shunday mulohaza A. Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi "adabiyot va san'atda insonning psixik, ruhiy kechinmalarini teran tasvirlash"²⁵, A. V. Bezrukova tahriri ostidagi "Adabiy lug'at"²⁶ hamda T. F. Yefremova tahriri ostidagi "Rus tilining zamonaviy izohli lug'ati"dagi²⁷ "ruhiy hodisalarni teran tasvirlashga, chuqur psixologik tahlilga moyillik" singari psixologizmga berilgan ta'riflarning asosini tashkil qiladi. Ta'kidlash joiz, nomlari sanalgan lug'atlardagi ta'riflarning ko'pchiligida psixologizmni yoki psixologik tahlil bilan aynan bir narsa (V. I. Chernishev singari) yoki psixologik tahlilga moyillik (D. N. Ushakov singari) deb talqin qilish ustunlik qiladi.

Psixologizm tushunchasida, yuqoridagi ta'rifdan ham ko'rinib turganidek, bir-biri bilan o'zaro bog'liq ikki jihat: qahramon ichki olami (ob'ekt sifatida²⁸) va badiiy adabiyot vositalari (psixologizm badiiy vositalari sifatida) uyg'unlashadi. Modomiki, qahramon "ichki olami" – bu, albatta, uning psixikasidan boshqa narsa emas ekan²⁹, badiiy psixologizmni bir tomondan psixologiya, boshqa tomondan adabiyotshunoslik bilan aloqador *fanlararo tushuncha* deb talqin qilishimiz lozim. Shu munosabat bilan psixologizmni tadqiq qilishga ikkala sohaning ham tushuncha va konsepsiyalarini tadbiiq etish zarurat hisoblanadi.

²¹ Лейтес Н. С. Конечное и бесконечное. Размышление о литературе XX в.: мировидение и поэтика: учеб. пособие по спецкурсу. – Пермь: Издательство Пермского университета, 1993. – С. 54.

²² Толковый словарь русского языка: в 3 томах.; ред. Д. Н. Ушаков. – М.: Вече, 2001. – С. 675.

²³ Ожегов С. И. Словарь русского языка. – М.: Оникс, 2006. – С. 620.

²⁴ Словарь современного русского литературного языка: в 17 т.; гл. ред. В. И. Чернышева. – М.: Издательство АН СССР, 1960. Т 11. – С. 1627.

²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд. – Б. 318.

²⁶ Литературный словарь; ред-сост. А. В. Безрукова. – М.: Литературная учеба, 2007. – С. 319.

²⁷ Современный толковый словарь русского языка: в 3 томах.; ред. Т. Ф. Ефремова. – М.: АСТ, 2006. – С. 1168.

²⁸ Психологизм объекти сифатида қаҳрамон ички оламини илк марта С. Г. Бочаров тилга олган эди. [1, 90].

²⁹ Shu o'rinda biz o'zimizga A. Iyevitovning "ayonki, inson ichki olami uning psixologiyasi bilan bir narsa emas" [45, 40] degan da'vosiga qo'shilmaslikni ravo ko'ramiz.

Psixologizmning adabiyotshunoslik tushuncha va kategoriyalari tizimidagi o‘rnini aniqlar ekanmiz, avvalambor, psixologizmning personajlar ichki olamini tasvirlash ekanligini, o‘z navbatida, personajlar obrazlarini adabiyotshunoslikda badiiy shaklning predmetli tasviriylig³⁰ (yoki A. B. Yesin aytganidek, tasvirlangan olam³¹) jihatiga tegishli deb hisoblash qabul qilinganligini tan olishimiz kerak. Shu ma’noda, *psixologizm badiiy shaklning alohida sifati* ekan. Shuning bilan birga ayrim asarlarda (psixologik romanlarda) psixologizm *uslubiy dominanta* bo‘lishi mumkin³². Bunday holatda nafaqat personajlar obrazlari, balki badiiy shaklning boshqa barcha unsurlari (tasvirlangan olam, badiiy nutq, kompozitsiya) estetik birlik – uslubni tashkil etganlari holda psixologizmga bo‘ysunadilar³³. Shu tariqa, psixologizm badiiy sistemasi qaysiki asarlarda u uslubiy dominanta bo‘lsa, badiiy shakl uchala jihatlarining barchasini qamrab olishi va turli-tuman badiiy vositalaru usullar bilan taqdim etilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, badiiy shaklning alohida sifati bo‘lsa-da, “psixologizm badiiy asar mazmunidan ayro emas”³⁴. G. N. Pospelov ta’kidlaganidek, “badiiy asar shakli va mazmuni qarama-qarshiliklar birligidan iboratki, ayni paytda, bu yaxlitlikda shaklga singib ketib, uni jonlantiruvchi mazmun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”³⁵.

Psixologizm batafsil va teran psixologik tasvirdan boshqa narsa emas ekan, modomiki, ayrim tadqiqotchilar tomonidan ishlatiladigan “psixologik tasvir” birikmasi “psixologizm” termini bilan sinonimdir.

Dissertatsiyada psixologik tahlilning jahon badiiy tafakkuri tarixidagi o‘ziga xos hodisa ekani ruhiy tahlil vositalarining tasnifi asosida isbotlangan. Shunga ko‘ra, birinchi bobning uchinchi fasli “*Ruhiy tahlil tamoyil va usullari, psixologik tasvir vositalari*” tadqiqiga yo‘naltirildi.

Adabiyotshunoslar ruhiy tahlilning asosiy shakllarini ikkiga ajratishni taklif qilishadi: “botiniy” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakli) va “zohiriy” (bavosita, sirtidan) shakllar. L. Ya. Ginzburgning ta’riflashicha, “Ruhiy tahlil muallif mulohazalarining bevosita shakli yoki qahramonlarning o‘zini o‘zi tahlil qilishi shaklida amalga oshiriladi yoxud bilvosita – ularning ma’nodor imo-ishoralari, xatti-harakatlarini muallif tomonidan tayyorlab borilgan kitobxon tahliliy talqin qiladi”³⁶. I. V. Straxov ruhiy tahlil shakllarini xarakterlarni “botinan” tasvirlash (“ichki nutq, xotiradagi obraz va tasavvurlar ko‘magida yuzaga chiqadigan harakatdagi shaxslar ichki olamini anglash orqali”) va “zohiran” tasvirlashga (“yozuvchi tomonidan nutq,

³⁰ Введение в литературоведение: учеб. для филол. спец. ун-тов; под редакцией Г. Н. Пospelова. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 181.

³¹ Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: учебное пособие. – М: Флинта, 2003. – С. 86.

³² Tasvirlangan olam sohasida A. B. Esin bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchta uslubiy dominantani ajratib kўrsatadi: qaysi asarlarda bu psixologizm, yana qaysi birida – сюжетlilik, qaysidir birida – baenlilik [5, 179].

³³ Шу munosabat bilan A. B. Esin psixologizmi “uslubiy birlik (yaxlitlik)” deb ta’riflaydi. Qarang: Esin A. B. Psixologizm // Русская словесность. – 1966. - №1. – С. 73.

³⁴ Иезуитов А. Н. Проблемы психологизма в эстетике и литературе. // Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 52.

³⁵ Введение в литературоведение: учеб. для филол. спец. ун-тов; под редакцией Г. Н. Пospelова. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 429-430.

³⁶ Гинзбург Л.Я. Кўrsatilgan asar. - Б. 347.

nutqiy va mimik o'zini tutishning ifodali o'ziga xosligi – ichkining tashqida ifodalanishini talqin qilish orqali”) ajratadi³⁷. Umuman olganda, I. V. Straxov fikrlariga qo'shilar ekan, A. B. Yesin uni “umumlashma-belgilovchi” (“summarno-oboznachayushiy”) deb ataluvchi uchinchi shakl: “kitobxonga personaj o'y va hislari haqida ichki olamda kechayotgan talotumlarni aytib o'tish, qisqacha izohlash” bilan to'ldirishni taklif etadi³⁸.

Ko'rinadiki, ruhiy tahlil shakllarini ajratishda makonga oid belgilardan foydalanish (ichki-tashqi) hikoya qilish bosqichlarining, sub'ekt va ob'ekt munosabatlarining qorishib ketishi bilan bog'liq chalkashlikni keltirib chiqaradi. V. Gudonene, boshqa qator tadqiqotchilar singari (I. V. Straxov, A. B. Yesin), psixologik tasvir usullarini XIX asr adabiyoti sarhadlariga moslab tasniflaydi. “Ruhiy tahlil shakllari” degan tushunchaning o'zi majburan psixologizmni realistik modifikatsiyada (xarakterni tushuntirish) tahlil qilishga yo'naltiradi. Umuman, taklif qilingan tasnifotlar adabiy reallikni to'laqonli aks ettira olmaydi. O. N. Osmolovskiyning XX asr adabiyotining lirik, dramatik, epik ko'rinishlarini hisobga olib aytgan “psixologik metod (manera)” haqidagi gaplari bejiz emas.

Psixologik matnning an'anaviy usullari ilmiy tadqiqotlarda, badiiy asarlardagi ruhiy tahlil bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanmalarida yetarlicha to'liq va keng yoritilgan³⁹. Ayniqsa, psixologik detallashtirish, portretlashtirish usullari, hikoya qilish shakllari (personaj ichki va tashqi nutqi, dialog, muallif sharhi kabilar) eng ko'p ishlangan. Bizning kunlarga kelib ruhiy tasvirning avvalgi asrlar adabiyoti tomonidan qo'lga kiritilgan usul va yo'sinlaridan keng foydalanilmoqda, ammo ular orasida kompozitsion-hikoya qilish (“nuqtai nazar” va hikoya sub'ektining o'zgarishi bilan bog'liq) usuli yetakchilik qila boshlayotir.

Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (ichki monolog, xotira, assotsiatsiyalar va tasavvur obrazlari) va tashqi (muallif nutqi, mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko'rinish holatlarining hissiy o'ziga xosligini namoyon qilish) formalariga ajratish mumkin. Umumiy aytganda, yozuvchi hislarning ob'ektiv kechish jarayoniga xalaqit bermasdan, qahramon ichki dunyosida kechayotgan tebranishlarni ifodalaydi. Ruhiy tahlil mohiyat e'tibori bilan kompleks xarakterga ega bo'lib, undan yozuvchilar qahramon ruhiyatini ochish uchun foydalanishlari, talqinchilar (sinchi, tadqiqotchi) esa badiiy asarni tekshirishda ruhiy tahlil (psixoanaliz) metodini qo'llashlari mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbek zamonaviy romanchiligi psixoanaliz va kollektiv g'ayrishuuriylik nazariyalari prizmasida”** deb nomlangan. Uning *“Roman tahlilida psixoanaliz va kollektiv g'ayrishuuriylik metodlarining ustuvorlik jihatlari”* nomli birinchi fasli psixologik romanlarni tahlil qilish metodlarini tanlash muammosiga bag'ishlangan. Ushbu faslda asar tahlilida


³⁷ Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособие для студ. / В 5 ч. / – Саратов: Изд. Саратовского ун-та, 1973. Ч.1. – С. 4.

³⁸ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1988. – С. 13.

³⁹ Психологический анализ в литературном произведении: Метод, материалы для студ.: В 2 ч. – Минск: Минск, гос. пед. ин-т им. А.М.Горького, 1991; Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. / В 5 ч. / – Саратов: Изд. Сарат. ун-та, 1973-1976.

psixoanaliz yoki kollektiv g'ayrishauriylik metodlaridan birining afzalligi, psixologik romanlar tabiatiga aniqlik kiritish, psixologizmning badiiy asarning shakl yoki mazmun hodisasiga tegishliligi borasidagi qarashlarni umumlashtirish maqsadida Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutining professor-o'qituvchilari hamda talabalari o'rtasida o'zbek romanlarida inson ichki dunyosi tasviri va uni tahlil qilish yo'llariga yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltirilgan.

Tadqiqotning alohida e'tiborga loyiq masalasi – psixologizmning badiiy asardagi shakl yoki mazmun hodisasiga taalluqli ekanligidir. Tadqiqotchilarning aksariyati va umuman oddiy kitobxonlarning ko'pchiligi inson ruhiyati, uning his-tuyg'ulari tasviri ustunlik qilganligi uchun psixologizmni mazmun hodisasiga tobe deb hisoblashadi (2.3-rasm). So'rovnomaning shu savoliga berilgan javoblarda respondentlarning 79,2 foizi psixologizmni shakl hodisasi desa, 12,5 foizi uni xronotopga tegishli deb hisoblar ekan. Ammo badiiy psixologizm xarakterlar ichki dunyosining tasviri bo'lganligi sababli ishtirokchilarning bor-yo'g'i 8,3 foizi ma'qullagan shakl hodisasi hisoblanadi. Aslida esa, psixologizm shakl hodisasi sanaladi.



2.3- rasm.

Mazkur tadqiqot muallifi bir necha yil avval e'lon qilingan "Psixologizm va uning adabiyotshunoslikka oid tushunchalar sistemasida tutgan o'rni"⁴⁰ nomli maqolasida ushbu masalaga oydinlik kiritib o'tgan edi. Psixologizm, avvalo, uning personajlar ichki olamini tasvirlash ekanligini, o'z navbatida, personajlar obrazini adabiyotshunoslikda badiiy shaklning predmetli tasviriylik⁴¹ (yoki A. B. Yesin aytganidek, tasvirlangan olam⁴²) jihatiga tegishli deb hisoblash qabul qilinganligini tan olish kerak. Shu ma'noda, psixologizm badiiy shaklning alohida sifati ekan.


⁴⁰ "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал. №1/2018. www.journal.fledu.uz

⁴¹ Введение в литературоведение: учеб. для филол. спец. ун-тов; под редакцией Г. Н. Поспелова. – М.: Высшая школа, 1988. – 528 с. (С. - 181.)

⁴² Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: учебное пособие. – М: Флинта, 2003. – 248 с. (С. - 86.)


Shuning bilan birga ayrim asarlarda (psixologik romanlarda) psixologizm uslubiy jihatdan dominant bo‘lishi mumkin. Bunday holatda nafaqat personajlar obrazlari, balki badiiy shaklning boshqa barcha unsurlari (tasvirlangan olam, badiiy nutq, kompozitsiya) estetik birlik – uslubni tashkil etganlari holda psixologizmga bo‘ysunadilar⁴³. Shu tariqa, psixologizm badiiy sistemasi qaysiki asarlarda u uslubiy dominanta bo‘lsa, badiiy shakl bu uch jihatning barchasini qamrab olishi va turli-tuman badiiy vositalaru usullar bilan taqdim etilishi mumkin ekan.

So‘rovnomaning “nimalar ko‘proq va chuqurroq tasvirlansa roman yanada qiziqarli bo‘ladi” degan savolga ishtirokchilarning 70,2 foizi “inson ruhiyati, ichki dunyosidagi tebranishlar” javobini belgilaganki, bu psixologizmning badiiy asar muvaffaqiyatini ta’minlovchi alohida tarkibiy qismligidan dalolat beradi (2.4-rasm).



2.4- rasm.

Mazkur tadqiqotdan ko‘zlangan bosh maqsad *qahramonlar ichki dunyosi teran tasvirlangan asarlar tahlilida qaysi metod ko‘proq qo‘l kelishi* borasida so‘rovnoma ishtirokchilarining fikrini bilish va shu orqali ushbu masalaga oydinlik kiritish edi. Ishtirokchilarning aksariyati ushbu masalada avstriyalik ruhshunos Zigmund Freydning “psixoanaliz” metodini ma’qulladi (2.5-rasm). Ushbu usul tarafdorlari 74,2 foizni tashkil etdi.



2.5- rasm.

⁴³ Шу муносабат билан А. Б. Есин психологизмни “услубий birlik (яхлитлик)” деб таърифлайди.

Asarlar tahlilida biografik metodni qo'llash tarafdorlari 16,7 foiz bo'lsa, Zigmund Freydning shogirdi va izdoshi Karl Yungning "kollektiv g'ayrishuuriylik" metodi eng kam – 9,2 foiz ovoz olgan. Ushbu savolga berilgan javoblar ishtirokchilarning deyarli barchasi psixoanaliz metodi haqida ko'p o'qigan yoki bu haqda ko'p eshitganligidan dalolat beradi. Aslida esa psixologik romanlar tahlilida kollektiv g'ayrishuuriylik metodining ayricha ustunlik jihatlari borki, muayyan asar tahlilida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. So'rovnoma ishtirokchilarning aksariyati nomlanishi inson psixikasi bilan bog'liq bo'lgani uchungina asar tahlilida psixoanaliz metodini tanlaganliklari ma'lum bo'ldi. Aslida badiiy asarni K.Yungning g'ayrishuuriylik nazariyasi prizmasida tahlil qilish uning poetikasi haqida samarali xulosalar chiqarish, qahramon va uning hayotini ishonarli tasavvur qilish imkonini beradi. Ijod jarayoniga g'ayrishuuriylikning aralashuvi muallifning badiiy ijoddagi imkoniyatlarini oshiradi. Yung nazariyasi bizni insonning ichki dunyosi bilan ishlashga yo'naltiradi. Fikrimizcha, aksariyat ijodkorlar uchun zamondosh shaxs, uning rivojlanishi muammolarini aniqlash, shuningdek, o'z davri tomir urishidagi o'zgarishlarni bashorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu bobning "*Zamonaviy o'zbek nasrida g'ayrishuuriylik: "Qo'rqma" romanida rivoya va talqin muammosi*" nomli ikkinchi faslida yosh yozuvchi Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romani Karl Yung taklif etgan kollektiv g'ayrishuuriylik tamoyili nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Biografik va psixoanalitik tahlil usullari ko'magida "Qo'rqma" romanidagi arxetiplardan biri – Ko'lanka obrazi ochib berilgan.

Roman bosh qahramoni, xuddi alahsirayotgandek, hush va tush oraliq'ida yashaydi. Voqealar uning o'ngida sodir bo'lyaptimi yoki tushida, ko'pincha buni ajratib olishning imkoni yo'q. Ta'kidlash joiz, g'ayrishuuriylikni tasvirlash – voqealar haqida "ong oqimi" usulida hikoya qilish zamon va makon chegaralarini buzishga, bundan yuz yil avval Germaniyaga tahsil olishga ketgan o'zbek talabalari hayotida yuz bergan hodisalar bilan bugungi kunimiz voqealarini parallel tasvirlashga, kitobxon nigohini u voqeadan bunisiga sezdirmay ko'chirishga xizmat qilgan. Tevarakdagi barcha-barchasi – borliq ko'rinishi, peyzaj va interer detallari qahramonning u yoki bu voqea yuz bergan joyga "ko'chishi" ortidan, uning ko'zlari tushishi yoki xayolan nigoh tashlashi bilan bog'liq holda tasvirga tortiladi. Bularning barchasi atrof-borliqni idrok etish fokusi qahramon ongidan g'ayrishuuriga ko'chganidan dalolat beradi. Hikoya qilish voqealarning umumiy borishiga, harakat yuz berayotgan holatlarni bayon qilishga emas, balki allaqanday ruhiy vaziyat, qahramon boshdan kechirayotgan individual holat xarakteristikasiga bo'ysundiriladi, kitobxonni shu nuqtai nazardan turib dunyoga nazar solishga undaydi.

"Qo'rqma" romanida o'zining alohida taqdiri va dunyoga individual nuqtai nazariga ega qahramon obrazini yaratish voqealarni hikoya qilish vazifasi topshirilgan "Men"ning matn ichida namoyon bo'lishini, dunyoni o'zicha idrok etayotgan individual ong faoliyatini taqozo etgan. Bosh qahramon memuar asardagi singari o'z tarjimai holini boshdan-oxir to'kib solmaydi. Asar voqealari uning hayotini ostin-ustun qilib yuborgan va shaxsiy tajribasida mislsiz ko'rgulikka

aylangan birgina dramatik voqea – sho‘ro tuzumining Germaniyada tahsil olayotgan yigit-qizlarni o‘z domiga ilintirish ishiga katta bobosining (Ko‘lanka obrazi) qo‘shgan hissasi atrofida aylanadi. Asarning syujet-kompozitsion qurilishidagi parokandalik, voqealar xronologiyasining ataylab buzilishi, istalgan joyidan, quramadek tartibsiz ketma-ketlikda bayon qilinishi shu vazifaga xizmat qilgan.

“Qo‘rqma” romanida yuqorida ta’kidlangan ko‘lanka misol bo‘ladigan obraz mavjud. Ammo u asarning boshqa qahramonlari singari dinamik harakatda tasvirlanmaydi. U bosh qahramon ongida yashaydi. Birinchi marta bu “ko‘lanka”ga romanning ilk sahifalarida, ota-onasidan erta ayrilgan qahramon xotirasida g‘ujg‘on o‘ynayotgan assotsiatsiyalar orqali ishora beriladi:

“Eskidan qolgan bir kapgir qarg‘ish badaliga havo o‘tib turar edi tomog‘imdan qum sizgani kabi chanqagan sahroyi tanasiga. Ammo bu la‘nat egasining qabri qani, qayerdan kelmoqda balolar? Hech bilmas edim, topa olmasdim qancha qidirmay” [3; 6]!

Bolaning savollariga buvisi bergan javobdan “Ko‘lanka” kimligi oydinlashgandek bo‘ladi:

“Men doim ichimdagi savollarga javob izladim: “Kim va ular qayerda?”

Momom javobdan qochib jerkib qolardi:

- Bor, bor-ey, kallamni yoqib yeding! Mushtday bo‘lib yomon savollar berasan, kim o‘rgatyapti senga?

- Bilmayman, o‘zi keladi, momo... - keyin yana tilimni tiya olmayman. – Otangiz kim o‘tgan o‘zi? Uning balosi urayotgandir menga?

- Nima?! – ko‘k ko‘zlari chaqnab ketadi, so‘ng tezakni somonga zarb bilan urib, jahl bilan baqiradi:

- Til tekkizma otamga! Ular yer tirnagan – dehqon bo‘lgan! Ko‘p kun ko‘rmay erta o‘lgan, bechora. Gunoh qilish uchun ham yashash kerak. Hov, ana bobongdan so‘ra, ne balo kelsa, boshimga undan uchadi”.

“Qo‘rqma” romanidagi Ko‘lanka obrazi kitobxonlarni har bir shaxs tiynatidagi ezgulik va yovuzlik kurashidan ogoh etadi. O‘zi asarda mavjud bo‘lmasa-da, personajlar xatti-harakatlari va bosh qahramon g‘ayrushuridagi faolligi tufayli kitobxon uni yaqqol ajratadi. Roman oxirlagan sayin Ko‘lanka bosh qahramonning ikkilangan o‘zligi ekanligi ma’lum bo‘la boshlaydi.

Roman qahramoni savqitabiiy tarzda Germaniyadagi o‘zbek yoshlarini sho‘ro hukumatiga sotgan bobosi uning o‘zi ekanligini sezib qoladi. O‘zidan, yaqinlaridan (bobosi, amakilari) nafratlanadi. Bu avlodning yashashga haqqi yo‘q, degan qarorga keladi. Ota-onasining, bobosining, o‘g‘il farzandlari yo‘q uchala amakisining o‘limini o‘ta yengil qabul qiladi. Ana shu sahnalar tasvirida psixologizm yanada chuqurlashadi, qahramon yurak-bag‘rini o‘rtayotgan ruhiy og‘riqlar uning dialoglarda aytilgan keskin fikrlari, ba’zan ma’nosizdek tuyulgan xatti-harakatlarida aks etadi.

Butun asar davomida qahramonni ta’qib etgan Ko‘lanka roman oxirida mahv bo‘ladi. Shu nuqtada moziyda va bugun yuz berayotgan voqealar silsilasidan iborat ikki syujet liniyasi birlashib, xronotop yagona maxrajga keladi. O‘z kechinmalarida,

ruhiy iztiroblarida yashagan Ko‘lankaga qo‘shilib bosh qahramon ham nobud bo‘ladi. Karl Yung taklif etgan kollektiv g‘ayrushuuriylik tamoyiliga asoslanadigan arxetiplardan biri – Ko‘lanka kitobxonga asar bosh g‘oyasini yetkazish, o‘tgan va hozirgi zamonda yuz berayotgan voqealar orasida qandaydir bog‘liqlik borligini anglatishga xizmat qilgan. Javlon Jovliyev qo‘llagan g‘ayrushuuriylik prizmasi orqali hikoya qilish tamoyili milliy xarakterlar ruhiyatini ochish, qahramon ong oqimi tasviri orqali bugungi o‘zbek jamiyatining ahvoli haqida fikr yuritish imkonini bergan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Ruhiy tahlil asar poetikasining uslubiy dominantasi*” deb nomlangan bo‘lib, unda aksariyat yozuvchilarimiz uchun roman janriga qo‘l urishdan oldin platsdarm vazifasini o‘tagan qissa janridagi inson ichki dunyosini tasvirlash masalasi yoritilgan.

Tog‘ay Murod Ziyodullaning ruhiy holatini ochadigan, ammo obrazning yaxlitligiga putur yetkazmaydigan bir qator ajoyib vaziyatlar yaratadi. Ziyodullaning samolyotdagi xatti-harakatlari tasvirlangan sahnani umrida birinchi marta parvoz qilayotgan cho‘ponning oddiyligini, go‘lligini qabartirib ko‘rsatish yo‘lidagi qiyoslash deb hisoblashimiz mumkin. E‘tibor qiling-a, samolyot oynasidan ko‘ringan bulutlarni u «paxta uyumi» sifatida qabul qiladi. Bu ilk marta samolyot bortiga ko‘tarilgan o‘zbek bilan yuz beradigan oddiy hol. Ammo muallif, Ziyodullani, suv keltirishni buyurish maqsadida «shahodat barmog‘ini likillatib... qizni imla»yotgan yo‘lovchilarning xatti-harakatlaridan hayratlanishga majbur qiladi. U styuardessani «o‘rtada lo‘killab yurgan laylakqush» sifatida qabul qiladi (150-bet). Avvalo, Ziyodulla torgina yo‘lak orasida borib kelishdan o‘zga iloji bo‘lmagan kalta yubkadagi qizni umrida birinchi bor ko‘rib turishi. O‘z-o‘zidan ayonki, qishloqda yashaydigan o‘zbek styuardessani bundan boshqacha qabul qila olmaydi. Shuning uchun ham qahramonning o‘zini tutishi ana shu maqomdan, shu rakursdan turib chiziladi: «Dadil bo‘ldim, o‘zimni bir sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Shahodat barmog‘imni likillatib, qizni imladim. Suv, deya og‘zimni ko‘rsatdim. Qiz bosh irg‘adi, suv olib keldi. Suvni bir yutishda yo‘qotdim. Boshqalarday bosh irg‘adim.

–O‘lmang! – dedim. – Katta qiz bo‘ling.

Ko‘kragimni kerdim, baqalog‘imni shishirib o‘tirdim» (151-bet).

Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasida detal, milliy dunyo kartinasi darajasigacha o‘sib borib, «dunyoning mikroobrazi» sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Muallif detalning bor kuchidan ta’sirchanlikni faollashtirishga, kitobxonni ijodga, o‘z assotsiativ dunyosiga sayohat qilishga va xayolotini kengaytirishga undashda foydalangan. Qissada qo‘llangan verbal va noverbal xatti-harakatlar majmui (psixologik dominantlar) chuqur motivli milliy qahramon – surxondaryolik oddiy kal cho‘pon xarakterining ishonchli chiqishiga zamin yaratgan.

Mazkur bobning “*Badiiy psixologizm “Shovqin” romanida uslubni belgilovchi mazmuniy shakl sifatida*” nomli so‘nggi faslida Erkin A‘zam uslubidagi ma’lum bir badiiy mazmunni qahramon nuqtai nazaridan hikoya qilish masalasiga oydinlik kiritiladi.

“Shovqin”da sobiq sho‘ro mafkurasi bilan qurollangan keksa avlod bilan bu tuzumning chiriganligini tushunib yetgan yosh avlod qarama-qarshi qo‘yiladi. Roman qahramoni Farhod Ramazon tushgan psixologik vaziyatning fojiasi shundaki, u bir paytlari ko‘ngli buyurmagan, qo‘li bormagan ishlarni ham qilgan. Endilikda u odamlar va dunyo haqida ko‘p o‘ylaydi: uning ongida, yangi taassurotlar ta’sirida tinimsiz qadriyatlarni qayta baholash jarayoni kechmoqda. Ong oqimi ko‘rinishidagi ana shu istig‘for va tazarrular adabiy qahramon ko‘nglidagi kuchli psixologik g‘ulg‘uladan darak beradi. Asarning ilk sahifalaridayoq uning qulog‘i ostida tinchlik bermagan shovqin aslida (“Aslida samolyotu uning salonidagi shovqinlar pasayib, dunyoning bor shovqini quloq-miya qa’riga ko‘chgan edi”.) uning qalbida kechayotgan ana shu g‘ulg‘ula mahsuli bo‘lib, Farhod Ramazon turli bahonayu sabablar, safarlar orqali buni yengishga, undan qutulishga urinsa-da, bari besamar ketayotganidan ozurda.

Roman badiiy kompozitsion jihatdan pishiq tuzilgan. Qahramonlar xarakterini ochishda ramziylik, majoziylik, ong oqimi tasviri, xotira-xayol unsurlari, maktub, kesatq va qochirimlar, yengil yumor, badiiy psixologizmning turli xil vosita va usullaridan o‘rinli foydalanilgan. Bir-biriga aloqasi yo‘qdek tuyuladigan voqealar montaj usuli orqali roman matni qatlariga payvandlab yuboriladiki, bunda adibning kinodramaturgiya sohasidan xabardorligi qo‘l kelganligi seziladi. Mavjud tuzum nog‘orasiga ko‘r-ko‘rona ergashish, fikrsizlik, milliy o‘zlikni unutish romanda eng katta fojia sifatida talqin etilgan. Shu ma’noda Erkin A’zamning “Shovqin” romani hozirgi o‘zbek romanchiligida yangicha tasvir uslubi bilan alohida diqqatga sazovor bo‘ldi, intellekti yuksak kitobxonlar oson tushunadigan, kuchli ijtimoiy-siyosiy ramzlarga burkangan roman sifatida e’tibor qozondi. Adabiyotshunos Marhabo Qo‘chqorovanning fikricha, “Hayotda har bir inson o‘ziga tegishli, o‘ziga uyg‘un, o‘ziga mos ohang, tovush topa bilishi – bular ramziy ma’noda mazmun, maqsad bilan yashashi lozim, degan badiiy falsafa romanning qavat-qavatlarini nurlantirib turganligi bizni qoniqtirdi”⁴⁴.

“Shovqin” romanida ko‘tarilgan g‘oyaviy-axloqiy muammolar bilan qahramonlarning ma’naviy-ruhiy izlanishlari orasida mustahkam rishta bo‘ladi. Shu tariqa, badiiy psixologizm qahramonlarning ma’naviy-ruhiy izlanishlarini o‘zida mujassam etgan, adabiyot tomonidan inson xarakterini shakllantirish, shaxs dunyoqarashining asoslarini o‘zlashtirilishining badiiy shaklidir. Psixologizmning muammoli-ma’rifiy va badiiy qiymati, mazkur shaklning kitobxonlarni jalb qilishining sababi shu. Agar adabiyot “insonshunoslik” ekan, unda inson xarakterining mohiyatini anglash – psixologizm insonshunoslikning o‘ta muhim quroli, shaxs g‘oyaviy-axloqiy asoslarini badiiy idrok etish vositasidir.

Tadqiqotning “**Roman strukturasida psixologizm poetikasi**” deb nomlangan uchinchi bobda “asar olami” tushunchasi, epik asarlar olamining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, psixologizmning epik asarlar strukturasidagi o‘rni va ahamiyati belgilangan, tasviriy ifodaviylikning psixologizmga nisbat beradigan asosiy birliklari, tarkibiy qismlari ajratilib, ularga ta’rif berilgan.

⁴⁴ Кўчқорова М. “Шовқин”нинг шов-шувлари. // “Ёшлик”, 2013 йил. № 1. – Б. 44.

Bobning “*Badiiy asar olamining o‘ziga xos xususiyatlari*” nomli birinchi faslida «asar olami» atamasi bilan bog‘liq bahslar, uning tasnifiga oid qarashlar D. S. Lixachyov, G. N. Pospelov, M. M. Baxtin, B. O. Korman, Ye. Farino, L. V. Chernets, V. Ye. Xalizev, V. I. Tyupa, N. D. Tamarchenko, D. Quronov singari o‘zbek, rus va jahon adabiyotshunoslarining fikrlari asosida qiyosiy o‘rganilgan. Asar olamining spetsifikasi, tasvir ob’ekti sifatida dunyoning nutq sub’ektlari bilan o‘zaro nisbati hamda nutq sub’ektining predmetli ifodalanish shakllari ham bo‘lishi mumkinligi tadqiq etilgan.

M. M. Baxtin konsepsiyasiga ko‘ra, muallif-ijodkor o‘z qahramonlariga nisbatan “hech yerda yo‘q”, bu tamoyil ularga “idrok dasturi” orqali berilgan. B. O. Korman o‘tgan asrning 70-yillari boshida V. Vinogradovning “muallif obrazi” haqidagi mulohazalariga asoslangan holda va M. Baxtinning asardagi “mazmuniy pozitsiyalarning” dialogikligi konsepsiyasini hisobga olib, hodisaning uslubiy emas, balki g‘oyaviy jihatini ajratib ko‘rsatgan; muallifni “butkul asar konsepsiyasining tashuvchisi” sifatida ko‘rib chiqqan edi. G‘arbiy Yevropa narratologiyasida ushbu holatda “implitsit muallif” (V. But), “ko‘zda tutiladigan muallif” (J. Jenett), “abstrakt muallif” (V. Shmid) tushunchalari qo‘llaniladi. Implitsit muallifga implitsit kitobxon muvofiq keladi.

Ijodkor-muallif nutqni sub’ektiv tashkil etish shakllarini tanlaydi: hikoya qilishni o‘rni bilan bayonchiga, hikoyachiga topshiradi yoki bunday vositachilik funksiyasini personajlarga topshiradi (kundaliklar, yozishmalar, noma’lum kimsaning maktubi va h.k. kabi), badiiy olamning makoniy-zamoniy shartlarini belgilaydi, ushbu olamning yaratuvchisi hisoblanadi, matn doirasidagi komponentlarda o‘zini topadi.

Roviy adabiy asar olamining qahramonlar harakatlanadigan qatlamiga nisbatan “tashqi” funksiyalarni bajaradi: voqealar va personajlar ichki hayoti xolis bayon qilinayotganligiga kitobxonni ishontiradi. U qahramonlar dunyosi ichida faol: uning har yerda hoziru nozirliги asar olami fragmentlarini birlashtiradi va bir butunlikka biriktiradi, sabab-oqibat aloqalarini oydinlashtiradi, muayyan hissiy kayfiyat beradi.

Asar olami hikoya qilish holatini, gapiruvchi va tinglovchilar tasvirini ham o‘z ichiga oladi. Hikoyachi, ba’zan esa uning tinglovchilari asardagi personajlar sifatida mavjud bo‘lsalar-da, ular tasvirlanayotgan voqealar ishtirokchilaridan tamomila farq qiladilar. Ushbu fasl doirasida asar olami o‘zida nafaqat “moddiy materiallarni”, ob’ektiv borliqni, balki inson *ruhiyatini* ham tashib kelishi, konkret asar strukturasi – butunlikning tashkillanishi, uni tashkil etayotgan unsurlarning o‘zaro aloqalari, ularning qay yo‘sin butunlik hosil qilishi qator adabiyotshunoslarning fikrlari asosida umumlashtirilgan⁴⁵.

⁴⁵ Лихачев Д. С. Внутренний мир художественного произведения // Вопросы литературы. 1968. № 8. – С. 74; Faryno J. Введение в литературоведение. – Katowice: 1978. Ч. 3. – С. 6.; Хализев В. Е. Литературно-художественная форма в ее соотносительности с содержанием // Введение в литературоведение / Под ред. Г. Н. Пospelova. – М., 1988. (Гл. VIII); Quronov D. Adbiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – 2004. 66-b; Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: “Kamalak”, 2016. – Б. 194.

“Asar olami”, “badiiy olam” soʻzlari adabiyotshunoslikda ham, adabiy tanqidda ham koʻpincha badiiy asar, yozuvchi ijodi, u yoki bu janr oʻziga xosligining sinonimi sifatida ishlatiladi. Juda koʻp tadqiqotlarning nomlari bizni yozuvchi olamiga kirishga taklif etadi⁴⁶. Asar olami qanday boʻlmasin, real voqelik bilan oʻzaro munosabatdosh tizim hisoblanadi: bu tizim tashqi va ichki (psixologik) jihatdan oʻziga xos odamlarni, voqealarni, tabiatni (jonli va jonsiz), odamlar yaratgan narsalarni oʻzi ichiga oladi, muayyan zamon va makonni taqozo etadi. Zero, soʻzlar (nutqning maʼnoli qismlari) mohiyat oʻrnini bosar ekan, predmetlar alomatlari, predmetli tasviriylik adabiyotning barcha turlariga xosdir. Modomiki, bizning emas, aynan qahramon olami ekanligi uchun ham bu dunyo “badiiy”dir: u qahramon dunyoqarashiga tegishli va uni oʻrab olgan muhitni toʻla oʻz ichiga oladi.

Bobning «*Matn ekspressiv boʻyoqdorligining ruhiyat tasviridagi ahamiyati*» deb nomlangan ikkinchi faslida badiiy matndagi ekspressiyaning adabiy qahramon ichki olami tasviridagi oʻrni aniqlanadi. Ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi vositalar tasniflanib, emotiv leksikaning matn emotsional mazmuni va emotsional boʻyoqdorligini taʼminlash funksiyalari tayin etiladi.

Zamonaviy filologiya ilmi emotsional-hissiy mazmunning (psixologizmning) badiiy asar strukturasidagi rolga katta eʼtibor qaratmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan taʼkidlanganidek, badiiy matnda soʻzlovchining nutqi mavjud til normalariga muvofiq oddiygina berilmaydi, balki badiiy tasvirlanadi ham. Ayni paytda tasvir, qoidaga koʻra, nutqning nafaqat verbal moddiylikni, balki u bilan bogʻlangan paralingvistik omillarni (imo-ishora, mimika va ularning koʻrsatmalarini) ham oʻzida jamlaydi. Unisi ham, bunisi ham soʻzlar orqali tasvirlanadiki, paralingvistik kod vositalarini lingvistik kod vositalari bilan berishni yoki bir semiotik tizimning boshqasiga oʻtuvchanligini (ulanishini) shartlantiradi. Kitobxonning personaj ichki, ruhiy faoliyatiga guvoh boʻlishiga imkon yaratadigan ayrim stilistik usullar ham badiiy matnning muhim qirrasini tashkil etadi. Bu jarayon tasviri ikki yoʻl bilan: muallif “aralashuviz” kechadigan ichki monolog va muallif hamda personaj ovozlarning oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gapda (bilvosita muallif nutqi) chatishuvi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bizningcha, ekspressivlikka chin maʼnodagi toʻla taʼrif I.V. Arnold bildirgan quyidagi qarashda mujassam: “Ekspressivlik deganda biz matn yoki matn boʻlagining soʻzlovchining ichki holatini ifodalash orqali maʼnoni orttirma intensivlikda beradigan va oʻz rivoji davomida ham obrazli, ham obrazli boʻlmagan emotsional yoki mantiqiy kuchayishga ega xususiyatini tushunamiz”⁴⁷.

Xullas, emotiv leksika personaj ruhiy portretini, uning ijobiy yoki salbiy obrazini yaratishda ishtirok etadi hamda asardagi (hatto, boshqa asarlardagi) boshqa

⁴⁶ Қаранг: Мамажонов С. Лирик олам, эпик қўлам. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 336, Мамажонов С. Адибининг бадий олами // “Ўзбекистон овози” газетаси, 1986 йил 12 декабрь; Бочаров С.Г. О художественных мирах. – М., 1985; Манн Ю.В. Грани комедийного мира. – М., 1987; Ақромов Б. Оламининг бутунлиги. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. – Б. 200; Умуров Х. Қаҳрамоннинг маънавий олами ва эпиклик. –Т.: «Фан», 1995; Раҳимов З. Қўҳна дунё поэтикаси –Фарғона, 2005.

⁴⁷ Арнольд И.В. Интерпретация художественного текста: типы выдвижения и проблемы экспрессивности // Экспрессивные средства английского языка. – Ленинград, 1975. – С. 11-20.

obrazlar bilan assotsiativ aloqalarni yo‘lga qo‘yishda qatnashadi. Umuman olganda, emotiv leksika badiiy matnda bundan boshqa yana ko‘plab zaruriy funksiyalarni bajaradi. Matnning emotsional mazmuni (qahramonlar ruhiyati) va hissiy bo‘yoqdorligini ta‘minlash shular orasidan eng asosiysi hisoblanadi.

Uchinchi bobning “*Xarakter ruhiyatini ochishda hikoya qilish texnikasining o‘rni*” deb nomlangan uchinchi faslida matn strukturasini tashkil etuvchi turli ifoda unsur va shakllarining o‘zaro tizimli aloqasi o‘rganilgan, bayon, hikoya qilish, xarakteristika singari nutq kompozitsion shakllari bugungi ilmiy qarashlar nuqtai nazaridan tavsiflanib, hikoya qilish sub’ektlari – muallif, hikoyachi, roviy, qahramon nutqlarining o‘ziga xosliklari ochilgan.

Odatda, badiiy asarlar tili tahlilga tortilganda qahramonlar nutqiga alohida e’tibor qaratiladi-yu, hikoyachi nutqi nazardan chetda qoladi. Vaholanki, bu epik asar nutqiy strukturasining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Fikrimizcha, syujet yukining asosiy qismi *hikoya qilish* zimmasiga tushadi: u orqali harakat rivoji va holatlar haqida xabar qilinadi. Shuning uchun ham u jo‘shqin – dinamik. Bayon esa harakat va holat ob’ekt va sub’ektlarning alomatlarini qayd etganligi uchun ham asosan turg‘un – statikdir. *Xarakteristika* ob’ektlar va harakatlar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalari haqidagi axborotni o‘z ichiga oladi. U ham statik. Hikoya qilish tushunchasi keng ma’noda asar voqealari haqida hikoya qilayotgan qaysidir sub’ektning kitobxon bilan muloqotini ko‘zda tutadi va badiiy bo‘lmagan matnlarga nisbatan ham qo‘llaniladi (masalan, voqealar haqidagi tarixchi-olim hikoyasi). Ayonki, avvalambor hikoya qilishning badiiy asar strukturasini bilan o‘zaro munosabatini aniqlash kerak bo‘ladi. Ayni vaqtda “hikoya qilinayotgan voqea” va “hikoya qilish hodisasining o‘zi”⁴⁸ kabi ikki muhim jihatni alohida ajratib olish zarurati ham mavjud. “Hikoya qilish” atamasi, bizningcha, faqatgina ikkinchi “hodisaga” mos keladi. Ayni paytda, tushuncha mohiyati hali milliy adabiyotshunosligimizda yetarlicha oydinlashtirilmagan. Hikoya qilishni ko‘pincha “bayon” va “tasvir” bilan, matn voqeiy mazmundorligi hamda bayonning boshqa shakllari bilan aralashtirib yuborish hollari uchrab turadi. Ushbu mulohazadan adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlarini zamon talabi asosida tez-tez yangilab turish zarurati anglashiladi. Masalaning murakkabligi shundaki, bizni qiziqtirayotgan kategoriya bir tomondan asarning so‘zdan iborat “materiyasi”ni, ikkinchi tomondan esa, personajlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot hodisasi “ishtirokchilarini” (*muallif, qahramon, kitobxon*; tasvirlangan olam hamda muallif va kitobxon olami o‘rtasidagi “vositachi” vazifasini bajaruvchi roviy yoki *hikoyachini*) xarakterlovchi boshqa qator tushunchalar doirasi bilan chambarchas bog‘liq.

Fikrimizcha, “hikoya qilish” tushunchasi mazmunan faqatgina hikoya qilish hodisasiga, ya’ni hikoyani olib borayotgan sub’ektning adresat-kitobxon bilan muloqotiga mos keladi. Bunday yondashuv hikoya qilishni syujet bilan aralashtirib yuborishning oldini oladi. Bundan tashqari, voqealar haqida harakatlanuvchi shaxslardan birining kitobxonga emas, balki personaj-tinglovchilarga qaratilgan hikoyasi va ayni shu voqealar haqida personajlar olami va kitobxon voqeligi

⁴⁸ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М., 1975. – С. 403.

o'rtasida vositachi vazifasini bajaruvchi nutq sub'ektining hikoyasi ajralib turadi. Faqat ikkinchi ma'nodagi hikoyani – so'z qo'llashda aniqlikni va mas'ullikni his qilgan holda – “hikoya qilish” deb atash kerak bo'ladi.

Shunday qilib, hikoyachi – yetarlicha ob'ektivlashtirilgan, muayyan madaniy-ijtimoiy va lisoniy muhit bilan bog'liq holda boshqa personajlarni tasvirlovchi tasvir sub'ekti ekan. Roviyy esa, aksincha, o'z tafakkur doirasiga ko'ra ijodkor-muallifga yaqin. Shu bilan birga qahramonlar bilan taqqoslaganda u xiyla betaraf nutqiy hodisa, umum e'tirof etgan lisoniy va uslubiy qoidalar egasi hisoblanadi. Qahramon muallifga qanchalik yaqin bo'lsa, qahramon va roviy o'rtasidagi nutqiy farqlanish shunchalik kam bo'ladi.

Roviyning “vositachiligi” birinchi navbatda voqealar, undan so'ng esa, qahramonlarning o'zini tutishlari hamda ichki olami haqida kitobxonlarda ishonchli va xolis tasavvur uyg'onishiga ko'maklashadi. Hikoyachining “vositachiligi” tasvirlangan olam ichiga kirish va voqealarga personajlar nigohi orqali nazar tashlash imkonini beradi. Bulardan birinchisi – bilvosita psixologizm shaklidagisi – tashqi nuqtai nazarining muayyan ustunliklari bilan ajralib turadi. Aksincha, bevosita psixologizm shakliga misol bo'la oladigan, voqealarni personaj nigohi orqali qabul qilishga to'g'ri keladigan asarlarda hikoyachi yo umuman yoki deyarli bo'lmaydi. Bunday asarlar odatda kundaliklar, yozishmalar, istig'forlar ko'rinishida bo'ladi. Uchinchi, oraliq variantda ijodkor-muallif ichki va tashqi pozitsiyalarni tenglashtirmoqchi bo'ladi. Bunday holatlarda hikoyachi obrazi va uning hikoyasi “ko'prik” yoki bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. Misol uchun, “Lolazor”dagi Qissanavis obrazi (personaj-muallif) Nazar Yaxshiboyevning hayotiy sayohatnomalarini Saidqul Mardon “asari” bilan bog'lab yuboradi. Demak, keng ma'noda (nutqning kompozitsion shakllarini hisobga olmaganda) hikoya qilish – tasvirlangan olam va badiiy butunlik adresati sanaladigan kitobxon o'rtasida “vositachi” vazifasini bajaruvchi nutq sub'ektlari (roviy, hikoyachi, muallif obrazi) tomonidan aytilgan barcha mulohazalar majmui ekan.

Qayd etilgan jihatlar bevosita psixologik tasvir asosida qurilgan o'zbek romanlarining nutq sub'ektlari tasvirida mukammal aks etadi. Shu sababli dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“O'zbek psixologik romanlarining o'ziga xos xususiyatlari”** tadqiqiga qaratildi. *“Bilvosita nutq “Lolazor” romanida bevosita psixologizm ko'rinishlaridan biri sifatida”* deb nomlangan birinchi faslda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning personaj ichki olamini tasvirlashdagi o'zni o'rganilgan, psixologizm bevosita ko'rinishi hisoblanadigan ichki nutqning roman qahramonlari ruhiyatini ochishdagi roli aniqlangan.

Nasriy asarda qahramon obrazini yaratish jarayonida psixologik tasvirning bevosita shakli sanaladigan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap hal qiluvchi o'rin tutadi. Xuddi monolog singari, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap hozirgi o'zbek psixologik nasrida personaj fikr va tuyg'ulari dinamikasini yetkazishning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Tog'ay Murod, Xayriddin Sulton, Murod Muhammad Do'st kabi qalam sohiblari psixologik tasvirning yorqin ustasi ekanliklarini o'z qissa va romanlari orqali namoyon qildi.

M. M. Do'stning "Lolazor" romani matni turli hikoya sub'ektlari nutqining quramasidan qad ko'targanki, buning tahlili orqali yozuvchi uslubini belgilab olish mumkin bo'ladi. Personajlarning psixologik-emotsional holatlarini va o'y-kechinmalarini berish uchun M. M. Do'st bir vaqtning o'zida ham badiiy psixologizm, ham nuqtai nazarlar polifoniyasini badiiy qayta tiklashning yetakchi tamoyillaridan biri – o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapdan (bilvosita nutqdan – Y. Solijonov termini) keng foydalanadi. Masalan, kam ishlatiladigan va murakkab iboralarni qo'llashni yaxshi ko'radigan Yaxshiboyevning nuqtai nazari ko'pincha uning shu odati tufayli romandagi hikoya qilish xillari orasida alohida ajralib turadi: "Deylik, u kechikibroq qolguday bo'lsa, jo'nroq yig'inlar boshlanmay turardi. Yaxshiboyev kelardi, intiq o'tirgan odamlarga qarab iljayardi, uzr so'rardi, hatto vajhu bahonalar ham to'qirdiki, barisi jo'yali bo'lardi. Lekin odamlar Yaxshiboyevga ishonmasdi. O'ylashardiki, *Yaxshiboyev o'sha joydan kelayapti*"⁴⁹. Shu tariqa, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap "Lolazor" romanida inson ruhiyatining sinoatlarini anglash, ruhiy jarayonni u endigina tug'ilayotgan, kechayotgan va yakuniga yetayotgan paytlarda yoritishga keng imkon bergan. Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) psixologizmning bu usuli odamlar orasida yolg'izlikka duchor bo'lgan, o'ziga berkinib yashashga majbur Nazar Yaxshiboyev ichki dunyosini aslidagiday tasvirlashda juda qo'l kelgan.

Bobning «*Otamdan qolgan dalalar*» romanida ruhiy kechinmalar tasviri» nomli ikkinchi faslida detalning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, xarakterlar to'laqonli obrazini yaratish va adabiy qahramonlar ichki olamini gavdalantirishdagi o'rni o'rganilgan. O'tgan asrning 80-90 yillari nasrini muhokama qilar ekanlar, tanqidchilar muayyan hodisa yoki vaziyatning juz'iy alomatini qayd etish orqali kitobxonga mufassal manzarani xayolda tiklash imkonini beradigan detalga yozuvchilarimizning moyilligi oshganligi borasida yakdillik bilan fikr bildiradilar. Badiiy asar mualliflarining detalga bo'lgan qiziqishlari uning kitobxon idrokini faollashtirishga, hamijodkorlikka, assotsiativ tasavvurga keng erk berishga chorlovchi yashirin kuchi bilan bog'liq. Umuman, badiiy detal fenomeni tasvirlanayotgan hodisani har tomonlama to'la qamrab olishning iloji yo'qligi bilan bog'liq. Detal narsa yoki hodisaning idrok etilgan qismini adresatga shunday yetkazib berishni nazarda tutadiki, kitobxon shu narsa-hodisa haqida to'liq tasavvurga ega bo'lsin.

"Otamdan qolgan dalalar" romanida tasviriy detallar juda ko'p uchraydi. Tog'ay Murod o'z qahramoni Dehqonqulni hech qayerda ayblamaydi, ammo uning nochor oilaviy hayoti manzarasini va xarakterini detal orqali ko'lamdor yoritadi:

"Ayolimiz dalalar uzra jimir-jimir etmish hilga termuldi.

"Qirmiz-qirmiz... Dumaloq-dumaloq"... – dedi.

Men qo'limda o'ynab yurmish g'o'za gulini ayolimizga uzatdim.

"Mana! – dedim. Qirmiz-qirmiz... dumaloq-dumaloq... gul!"

Ayolimiz qo'limni qaytarib tashladi.

"Bundaychikin emas", – dedi.

⁴⁹ Дўст М. М. Лолазор. Роман. – Тошкент: "Шарқ", 1998. 9-б.

“Bo‘lmasa, qirmizi dumalog‘ing nimang?”

Men jo‘rttaga shunday dedim.

Bildim – ayolimiz qirmizi olma, dedi. Bildim – ayolimiz qirmizi olmaga yerik bo‘ldi!”⁵⁰.

Tinkani quritadigan darajadagi muttasil og‘ir mehnat tufayli yashashdan charchagan Dehqonqulning xotini o‘ziga-o‘zi o‘t qo‘yib olamdan o‘tadi. Beshikdagi bolasi sutdan qolmayin ikkiqat bo‘lgan ayolning armonga aylangan orzu-havaslarini Dehqonqul, u o‘lgach, beshikdagi yozuvlardan bilib qoladi. Beshik tebratgichida boshqa yozuvlar bilan birga “Qirmiz-qirmiz... Dumaloq-dumaloq”... degan bitiklar ham bor edi. Ko‘rinadiki, badiiy detal – personaj ruhiy holatini aslidagidek tavsiflaydi, kechinmalarini ishonarli gavdalandiradi, kitobxonga asar bosh g‘oyasini, muallif ijodiy niyatini yaqqolroq anglatadi. Aynan detal, matnda butunning o‘rnini bosadi, personajlararo yoki qahramon bilan real voqelik o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtiradi, tagma‘no yuzaga keltirishda ishtirok etadi, ichkining tashqidagi nuqsini batafsilroq tasvirlab, asarda yoritilmagan o‘rinlarni kitobxon tasavvurida tiklashga xizmat qiladi.

«*Psixologik romanda hikoya sub‘ektlari: nuqtai nazar tamoyilining imkoniyatlari*» deb nomlangan uchinchi faslda M. M. Do‘stning “Lolazor” romanidagi nuqtai nazarlar polifoniyasi o‘rganilgan. O‘zaro uyg‘unlikda “harakatlanadigan” nuqtai nazarlarning ko‘plik va birlikda mavjud bo‘lishi asoslangan.

“Lolazor”da psixologizm, qahramonlar ichki olamini ochish, hikoya qilishda drammatizmning kuchaya borishi hamda asar oxiriga borib struktura hosil qilishdagi roli yaqqol ko‘zga tashlanadigan postmoderncha ijro muhim o‘rin tutadi. Asar kompozitsiyasining asosida aynan nuqtai nazarlarning g‘aroyib chatishuvi yotadi, u bir paytning o‘zida tashkil qilish (kompozitsion) va “ijroviy” (o‘yin uchun belgilangan) vazifalarni bajarib keladi. Muallif ko‘p hollarda “nuqtai nazar” yordamida kitobxonni personaj xarakterining ichki olamiga olib kiradi, ammo ba‘zan bu usul va uning nozik manipulyatsiyasi orqali kitobxon ataylab chalkashtiriladi ham.

Nazar Yaxshiboyevning hashamdor hayoti va ayanchli taqdiri haqida hikoya qiluvchi roman shaklan o‘n to‘rt bobdan iborat. Lekin boblarning tartiblanishi shartli bo‘lib, aslida roman har biri o‘z mustaqil yo‘nalishiga ega ikki asardan iboratdek tuyuladi. Toq sonli boblardagi voqealar “Bemor” nomi bilan Nazar Yaxshiboyev tilidan, juftlaridagi esa, muallif romanga ataylab kiritgan “Qissanavis” – Saidqul Mardon tilidan hikoya qilinadi. Ammo turfa taqdirlarning rang-barang talqinlari bilan tanisha borar ekanmiz, roman tarkibida yana bir hikoyachi – roviy obrazi borligini ham ilg‘ay boshlaymiz. Hikoya qilishdagi bu o‘zgachalik – muallifning o‘zini chetga olib, tafsilotlar tizginini personaj va roviyga ishonib topshirganligi, avvalboshda har qanday kitobxon fikrini chuvalashtirib yuborishi, hatto xayolida ba‘zan gapirayotgan kim o‘zi, degan savolni ko‘ndalang qo‘yishi mumkin. Biroq asta-sekin romandagi asosiy va hal qiluvchi nuqtai nazar bosh qahramon Nazar

⁵⁰ Мурод Т. Отамдан қолган далалар. – Т.: “Шарқ”, 1994. – Б. 188.

Yaxshiboyevga tegishli ekanligi oydinlasha boradi. “Bemor”ga bag‘ishlangan boblar tufayli ko‘z o‘ngimizda Yaxshiboyev va uning tevaragidagi personajlarning shakllanish bosqichlari aks etgan yaxlit bir kartina bor bo‘yi qad ko‘taradi. Bosh qahramon ko‘rguliklari qay tariqa uning ichki holatiga ta’sir o‘tkaza olishini his qilib turamiz.

Shu tariqa, “Lolazor”da har biri alohida yaxlit obrazlarni yaratishga xizmat qiladigan “nuqtai nazarlar” polifoniyasi ko‘zga tashlanadi. Nazar Yaxshiboyev nuqtai nazari romanda ko‘tarilgan muammolarni ichdan ko‘rsatishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. “Nuqtai nazar” tamoyili romanda hikoya qilishning va kompozitsion-syujet qurilishining yaxlitligini ta’minlash barobarida qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirib borish, Nazar Yaxshiboyevning murakkab ichki olamini bor bo‘yicha tasvirlashga xizmat qilgan.

To‘rtinchi bobning so‘nggi fasli «*Isyon va itoat*» romanida ruhiy tahlil *dinamikasi*»ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ruhiy tahlil shakllarining adabiy qahramon ichki dunyosini ochishdagi vazifasi belgilangan.

Yozuvchilar adabiy qahramonlarning adolatparvarliklaridan, haqiqat ko‘yida o‘rtanib-yonishlaridan ruhiy tahlilning keng tarqalgan shakllaridan biri sifatida foydalanib keladilar. Insonning shaxs sifatida shakllanishini mayda detallarigacha qayta tiklashni nazarda tutadigan bunday uslub Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”idagi Akbar timsolida alohida ko‘zga tashlanib turadi. Ancha-muncha qiyinchiliklarni boshdan kechirib qo‘yganiga qaramasdan hali ancha g‘o‘r Akbar ustoziga yozgan maktubida o‘zining ishq, oila davrasi, yoqtirgan mashg‘uloti kabi bir insonga yetarli narsalar bilan hecham qoniqmayotganini, “ko‘ngli boshqa olamlarni” tusashini quyidagicha izhor qiladi: “Shunda turib-turib tutoqib ketaman: qani endi shunday imkonning bo‘lsa-yu, o‘z qo‘llaringga qilich tutib vujudingni qiyma-qiyma qilsang-da, o‘sha narsani – esingni tanibsanki, joningga do‘zax azobini solib kelayotgan o‘sha borliqni topsang, uning nima ekanligini anglasang!..⁵¹” Ammo keyinchalik, o‘zi ham ustozlik maqomiga erishgach, Akbarning vujudidagi isyon bilan itoat o‘rin almashadi: “Axir u nega o‘shanda maktab bolasiga qo‘l ko‘tardi, nega o‘zga mamlakatlarga pul izlab ketib qoldi, nega o‘z oilasining totli qo‘ynida yashamadi, shaharga yo‘l soldi, keyin esa nega yana qishloqqa qaytib keldi – mana, nihoyat, endi tushunib yetyapti. U ham bo‘lsa o‘sha ayovsiz gulxan – Isyon edi... Endi uning ko‘zlarida, bag‘rida, butun borlig‘ida itoat nuri hokim, itoatki mislsiz isyondan so‘nggina tug‘iladigan, itoatki insonni isyondan ming karra, million karra yuksakroqqa eltadigan!..”

Umuman, romanda nafaqat odamlar gapirib, ulargina harakatlanadilar, balki unda “Tangri taolo bilinmoqni” istaydi, “Zulmatning qornini yorib, butun boshli dunyo yaratishni niyat” qiladi⁵², “o‘zining shoh asari – Odamni o‘z suratida, ilohiy shamoyilda tuproqdan” yasaydi-da, “uning dimog‘iga hayot nafasini puflab jon ato” etadi. Bularning barchasi yaralmish maxluqlarning, yaralishning, yaratuvchanlikning, Yaratguvchining birligini bildiradi. Bu birlik, bir qarashda

⁵¹ Хамдам У. Ватан ҳақида кўшиқ. – Тошкент: “Академнашр”, 2014. 358-б.

⁵² Хамдам У. Ватан ҳақида кўшиқ. – Тошкент: “Академнашр”, 2014. 283-б.

asosiy syujet chizig'iga mos tushmaydigandek ko'rinsa-da, roman qismlari orasiga mohirona singdirib yuborilgan, bosh g'oyaning to'laligicha ochilishiga hissa qo'shayotgan obrazli-ramziy fasllarning bir-birini to'ldirib kelishida ko'rinadi. Bu tariqa serma'nolilik psixologik jihatdan ham (shaxs birligi bilan), teologik jihatdan ham (butun olam, koinotning birligi, Yaratuvchi va u yaratgan maxluqotlar o'rtasidagi ruhoniyy yaqinlik bilan) shartlangandir. Aytish mumkinki, U. Hamdam an'anaviy psixologizmdan islom dinining ajdodlarimiz tayanib kelgan muqaddas ta'limotiga mansub ruhoniyy, pnevmatologik psixologizmga ko'tarila olgan.

Romanda dunyoviy jamiyatda umrguzaronlik qilayotgan, jismini uning turli imkoniyat va yengilliklaridan bahramand etib kelayotgan diyonatli odam, bir kun kelib, baribir, o'zining ichki olami bilan ham hisoblashishga majbur bo'lishi, ruhoniyy olamini tanigan shaxsninggina ko'ngli taskin topishi haqidagi diniy arkonlarimizdan bizga ma'lum g'oya uzil-kesil hal etiladi.

XULOSA

Hozirgi o'zbek romanlari strukturasidagi psixologizm muammosi yuzasidan olib borilgan tadqiqotimiz natijasida qator xulosalar chiqarildi:

1. Psixologizmning kelib chiqishi borasidagi qarashlar, birinchi navbatda, "psixologizm" atamasini talqin qilishdagi tafovutlar tufayli, turli-tuman. Keng ma'noda psixologizm adabiyotning ichki tabiatidan kelib chiqadi, uning poydevori so'z san'ati rivojining ilk bosqichlaridanoq quyilgan. Anglangan estetik tamoyil sifatida uning yuzaga kelishi adabiy jarayonning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi.

2. XX asr psixologiyasi va falsafasi inson fenomenini yangicha izohlay boshladi, borliqning dinamik o'zgaruvchanligi adabiyotning ruhiy-ma'naviy hayotni tadqiq etish maylini kuchaytirdi. Inson ruhiyati realizm an'analarini davom ettirayotgan yozuvchilar uchun ham, modernistik ijodkorlar uchun ham mushohada predmetiga aylandi. XX asr adabiyotida analitik yo'sindan sintetik prinsip foydasiga siljish, bevosita tasvir usullaridan bilvosita foydasiga yuz burish, ong osti sohasiga yanada sinchkovlik bilan nazar tashlash holatlari psixologizm evolyutsiyasining bosh va umumiy tendensiyasiga aylandi.

3. Psixologizm poetikasi davrning inson haqidagi falsafiy va ilmiy tasavvurlaridan oziqlanadi; shaxs konsepsiyasi, badiiy sistema, ijodiy metod bilan shartlanadi. Inson ichki olami adabiyot ko'zgusida o'ziga xos talqin va baho oladi. Noestetik hodisa – ruhiyatning estetik hodisaga aylanishi (psixologizm shakllari, yo'sin va usullari) yuz beradi. Bu usullarning adabiyot rivoji jarayonida oddiydan to murakkabgacha bo'lgan uzluksiz o'zgarishi psixologizm dinamikasini belgilaydi.

4. "Psixologizm" va "psixologik tahlil" tushunchalari qisman bir-birini to'ldirib kelsalar-da, mazmun jihatdan to'la ma'noda sinonim emas. «Psixologizm» tushunchasi "psixologik tahlil"dan ko'ra kengroq, muallif psixologiyasining asardagi aksini ham ifodalaydi. Badiiy psixologizm – inson ichki hayotining muallif tayanadigan tushunchalar, uning shaxs haqidagi tasavvurlari va kitobxonga qaratilgan muloqot strategiyasi bilan shartlanadigan badiiy-obrazli, tasviriy-ifodaviy

tiklanishi va tavsiflanishidir. Harakat sub'ekti sifatida personaj tutim va ruhiyati so'zda ifodalangan hamda kompozitsion jihatdan uyushgan obrazning predmetlik jihatidir.

5. Eng ta'sirchan va samarali badiiy vosita sifatida ruhiy tahlil roman badiiyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mohiyatan ruhiy tahlil kompleks xarakterga ega bo'lib, yozuvchilar undan qahramon ruhiyatini gavdalantirish usuli sifatida, adabiyotshunoslar esa, badiiy asarni tekshirish usuli sifatida foydalanmoqda. Ruhiy tahlil personaj jismoniy jihatlari va uning ma'naviy-ruhiy olamidan chiqib keladigan shaxsiy tajribasining badiiy ifodasi hisoblanib, bugungi o'zbek romanchiligida uning «nuqtai nazarlar polifoniyasi» va hikoya sub'ekti hamda ob'ekti bilan bog'liq usullari yetakchilik qilmoqda.

6. Asar olami – bu badiiy tasvirning kompozitsion jihatdan uyushgan va matnda mujassamlashgan predmetlik tomonidir. U butun, shartli, tizimli. Odamlar, narsalar, tabiat, qahramonlarning o'zini tutishlari, o'y-fikrlari, kechinmalari singari yozuvchi tomonidan shartli ravishda real voqelikka o'xshatib chizilgan borliq manzarasi – asar olami nafaqat “moddiy materiallarni”, ob'ektiv borliqni, balki inson ruhiyatini ham tashiydiki, shunga ko'ra psixologizm epik asar strukturasining shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Tasvirlangan badiiy olam kitobxonga estetik ta'sirning asosini tashkil etadi; kitobxon ijodiy faolligi namoyon bo'ladigan soha sanaladi.

7. Ekspressiv leksika personaj psixologik portretini, uning ijobiy yoki salbiy obrazini yaratishda ishtirok etadi hamda asardagi (hatto, boshqa asarlardagi) o'zga obrazlar bilan assotsiativ aloqalarni yo'lga qo'yishda qatnashadi. Matnning emotsional mazmuni (qahramonlar ruhiyati) va hissiy bo'yoqdorligini ta'minlash emotiv leksikaning eng asosiy funksiyasi hisoblanadi.

8. Hikoya qilish – tasvirlangan olam va badiiy butunlik adresati sanaladigan kitobxon o'rtasida vositachi vazifasini bajaruvchi nutq sub'ektlari (roviy, hikoyachi, muallif obrazi) tomonidan aytilgan barcha mulohazalar majmuidir. Nutqiy xarakteristika personajlarning nimalarni gapirganlaridan ko'ra, qanday gapirganlaridir. Personaj nutq manerasi, gaplarining stilistik bo'yoqdorligi, iboralarining ohangdorligi kabi jihatlar ham uning muayyan vaziyatdagi ruhiy holatidan darak beradi. Roviylar – barcha obrazlar kabi yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan alohida badiiy obraz. Har qanday obraz singari u birmuncha badiiy shartlanganlikka ega, ikkilamchi badiiy reallikka tegishli. Roviylar kitobxonga voqealar va personajlarning qilmishlaridan xabar beradi, vaqt oqimini qayd etib boradi, harakatdagi shaxslar qiyofasi va harakat yuz berayotgan sharoitni tasvirlaydi, qahramon ichki holati va o'zini tutish motivlarini tahlil qiladi, uning ma'naviy qiyofasini xarakterlaydi.

9. M. M. Do'stning “Lolazor” romanida psixologizm, qahramonlar ichki dunyosini ochish, hikoya qilishda drammatizmning kuchayishi hamda asar oxiriga borib struktura hosil qilishdagi roli yaqqol ko'zga tashlanadigan postmoderncha ijro muhim o'rin tutgan. “Nuqtai nazar” tamoyili romanda hikoya qilishning va kompozitsion-syujet qurilishining yaxlitligini ta'minlash barobarida qahramonlar ruhiyatiga chuqur kirib borish vositasiga aylangan.

10. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani chuqur psixologik tahlil, personajlar qalbida kechayotgan yashirin izdihomlarni tasvirlashda yozuvchi asosan bilvosita psixologizm vositasi sanaladigan psixologik detaldan foydalangan. Uning vositasida Dehqonqulning ruhiy holati aslidagiday tavsiflangan, kechinmalari ishonarli gavdalan tirilgan, kitobxonga asar bosh g‘oyasi, muallif ijodiy niyati yaqqolroq anglashilgan. Shuningdek, detal, matnda butunning o‘rnini bosib, qahramon bilan voqelik o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirgan, tagma‘no yuzaga keltirishda ishtirok etib, ichkining tashqidagi nuqsini batafsilroq tasvirlashga, asarda yoritilmagan o‘rinlarni kitobxon tasavvurida tiklashga xizmat qilgan.

11. Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanidagi syujet o‘zagini tashkil etuvchi voqealar qanchalik qiziqarli, fojeiy va ibratomuz bo‘lmasin, romanda asosan qahramon ichki olami tahlilning bosh ob‘ektiga aylangan. Romanda psixologizmning noan‘anaviy shakllari, xususan, ongning reallik va to‘qima oralig‘idagi g‘aroyib sinoatlariga to‘la tush sohasiga ham alohida e‘tibor qaratilishi natijasida tush va hush chegarasidagi obrazlar chalkashuvi, ongda chuqur asorat qoldirgan assotsiatsiyalarning g‘ayritabiiy o‘yini, tafakkurning intuitiv tarzda yorishishi kabi holatlar bo‘y ko‘rsatgan. Akbarning tushlari romanda ulkan ruhiy, ma‘naviy-g‘oyaviy mazmun kasb etgan.

12. Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasida detal, milliy olam kartinasi darajasigacha o‘sib borib, “dunyoning mikroobrazi” sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Muallif detalning bor kuchidan ta’sirchanlikni faollashtirishga, kitobxonni ijodga, o‘z assotsiativ dunyosiga sayohat qilishga va xayolotini kengaytirishga undashda foydalangan. Qissada qo‘llangan verbal va noverbal xatti-harakatlar majmui (psixologik dominantlar) chuqur motivli milliy qahramon – surxondaryolik oddiy cho‘pon xarakterining ishonchli chiqishiga zamin yaratgan.

13. Psixologik detal ijodiy niyatni ochish yo‘lidagi muallif urinishlarini nozik badiiylashtiradi, kitobxonda xolisona tarafdorlik hissini uyg‘otadi. Eng muhimi, psixologik detal badiiy asarda qahramon ruhiy olamining rang-barang, ayni paytda, kitobxon anglashi zarur bo‘lgan asosiy, yetakchi qirralarini ochadi.

14. Ichki monolog – badiiy asarda personajning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi bo‘lib, mohiyat e‘tibori bilan qahramon ichki dunyosini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ichki monolog, odatda, roviy rivoyasida, o‘ziniki bo‘lmagan nutq tarzida beriladi-ki, muallif mahorati, estetik tafakkuri nechog‘li yuksak ekanligining belgisi hisoblanadi.

15. Karl Yung taklif etgan kollektiv g‘ayrishauriylik tamoyili asosida anilangan arxetiplardan biri – Ko‘lanka obrazi “Qo‘rqma” romanida kitobxonga asar bosh g‘oyasini yetkazish, o‘tgan va hozirgi zamonda yuz berayotgan voqealar orasida qandaydir bog‘liqlik borligini anglatishga xizmat qilgan. Javlon Jovliyev qo‘llagan g‘ayrishauriylik prizmasi orqali hikoya qilish tamoyili milliy xarakterlar ruhiyatini ochish, qahramon ong oqimi tasviri orqali bugungi o‘zbek jamiyatining ahvoli haqida fikr yuritish imkonini bergan.

Umuman olgand, badiiy psixologizmni o‘rganish, uning o‘zbek romanlar tarkibidagi vazifalarini yoritish epik asarlar mazmun-mohiyatini, yozuvchi

konsepsiyasini, ijodiy niyatini keng ochib berishga, xalqimizning boy ma'naviy-ruhiy dunyosi, badiiy-estetik tafakkur tarzini teran anglab, idrok etishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

БОБОХОНОВ МАВЛОН РАХМАТИЛЛАЕВИЧ

**ПРОБЛЕМА ПСИХОЛОГИЗМА В СТРУКТУРЕ СОВРЕМЕННЫХ
УЗБЕКСКИХ РОМАНОВ**

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
докторской диссертации (DSc) по филологическим наукам**

Самарканд – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована за номером B2022.1.DSc/Fil13 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Умуров Хотам Икромович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тураев Дамин Тураевич
доктор филологических наук, профессор

Каримов Баходир Нурметович
доктор филологических наук, профессор

Исламов Рамиль Фанавиевич
доктор филологических наук

Ведущая организация:

**Государственный музей литературы
имени Алишера Навои АН РУз**

Защита диссертации состоится «16» июня 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, 239-18-92; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz), Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, аудитория №105.

Диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под номером ____). (Адрес: 140104, г.Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40, факс: (8366) 239-11-40)

Автореферат диссертации разослан “____” _____ 2023 года
(Протокол реестра № ____ от “____” _____ 2023 года).

М.К.Мухиддинов

Председатель Научного совета по
присуждению научных степеней, д.ф.н.,
профессор

Д.Б.Хурсанов

Секретарь Научного совета по
присуждению научных степеней,
д.ф.ф.н. (PhD)

Ш.А.Хасанов

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
научных степеней, д.ф.н., профессор

ВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

